

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ТАЪЛИМ, ФАН ВА ИННОВАЦИЯЛАР ВАЗИРЛИГИ**

ЧИРЧИҚ ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА УНИВЕРСИТЕТИ

“ТАСДИҚЛАЙМАН”



**ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛЛАШТИРИШ,
ИЛМИЙ-ПЕДАГОГ КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ, ИҚТИДОРЛИ ТАЛАБА-
ЁШЛАР БИЛАН ИШЛАШ, ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРИНИ
ИШЛАБ ЧИҚАРИШГА ЖОРИЙ ЭТИШ ЮЗАСИДАН
2024 ЙИЛ ДАВОМИДА АМАЛГА ОШИРИЛГАН
ИШЛАР БЎЙИЧА ЙИЛЛИК
Ҳ И С О Б О Т**

**Ҳисобот университет Илмий Кенгаши йиғилишининг
2024 йил 26 декабрдаги 6-сонли мажлисида
муҳокама қилинган ва маъқулланган**

ЧИРЧИҚ– 2024

Математика ва информатика
Физика ва кимё факультети
Табиий фанлар факультети
Гуманитар фанлар факультети
Педагогика факультети
Мактабгача таълим факультети
Туризм факультети
Санъатшунослик факультети
Жисмоний маданият факультети
Бошланғич таълим факультети

МУНДАРИЖА

КИРИШ	
I БОБ. ИЛМИЙ - ТАДҚИҚОТ ФАОЛИЯТИНИНГ УМУМИЙ ТАВСИФИ	
1.1. Чирчиқ давлат педагогика университетининг илмий-тадқиқот фаолиятини устувор йўналишлари.....	
1.2. Чирчиқ давлат педагогика университети профессор-ўқитувчиларнинг илмий салоҳияти.....	
1.3. Чирчиқ давлат педагогика университетида давлат илмий-техника дастурлари доирасида бажарилаётган илмий-тадқиқот ишлари.....	
1.4. Чирчиқ давлат педагогика университетида иқтисодиёт соҳаларига оид корхона ва ташкилотлар билан ҳамкорликда бажарилаётган хўжалик шартномалари.....	
1.5. Чирчиқ давлат педагогика университетида чет эл грантлари бўйича бажарилган ишлар.....	
1.6. Чирчиқ давлат педагогика университетининг фан, таълим ва ишлаб чиқариш билан интеграцияси (натижаларни ишлаб чиқаришга жорий этиш ҳолати).....	
1.7. Чирчиқ давлат педагогика университети Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси билан ҳамкорлик.....	
1.8. Чирчиқ давлат педагогика университетидаги инновацион ғоялар ва ишланмалар.....	
1.9. Чирчиқ давлат педагогика университетининг халқаро ҳамкорлик алоқалари.....	
II БОБ. ИЛМИЙ-ПЕДАГОГИК ФАОЛИЯТ САМАРАДОРЛИГИ.	
2.1. Чирчиқ давлат педагогика университетининг олий таълимдан кейинги таълим институти фаолияти самарадорлиги (таянч докторантура, докторантура, мустақил изланувчилик, стажёр-тадқиқотчилик)	
2.2. Чирчиқ давлат педагогика университетида диссертация ҳимоялари бўйича Илмий кенгашлар фаолияти. Диссертациялар (PhD/DSc) ҳимоя кўрсатгичи.....	
2.3. Чирчиқ давлат педагогика университетида “Ёш олимлар кенгаши” ва “Докторантлар мактаби фаолияти”.....	
2.4. Чирчиқ давлат педагогика университетида иқтидорли талабалар билан ишлаш.....	
2.5. Chirchiq davlat pedagogika universiteti Yoshlar akademiyasi faoliyati to‘g‘risida	

III БОБ. ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ ИШЛАРИ САМАРАДОРЛИГИ

3.1. Чирчиқ давлат педагогика университетидаги илмий-тадқиқот лойиҳалари

3.2. Чирчиқ давлат педагогика университетининг патентлари, гувоҳномалари, лицензиялари.....

3.3. Чирчиқ давлат педагогика университетидаги илмий журналлар фаолияти, нашр фаоллиги (илмий мақолалар, тезислар, дарслик, ўқув қўлланма, монография ва бошқалар.....

3.4. Чирчиқ давлат педагогика университетидаги ўқув-услубий комплекслар ва марказларнинг фаолияти тўғрисида маълумот.....

IV. ЯКУНИЙ ҚИСМ.....

КИРИШ

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 21 июндаги “Педагогик таълим сифатини ошириш ва педагог кадрлар тайёрловчи олий таълим муассасалари фаолиятини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги №ПҚ-289- сонли қарори асосида Тошкент вилояти Чирчиқ давлат педагогика институти негизида Чирчиқ давлат педагогика университети ташкил этилган.

Ушбу қарорнинг асосий вазифаларидан келиб чиқиб, замонавий ижтимоий-иқтисодий шароитларда таълим тизимини такомиллаштиришнинг етакчи йўналишларини белгилаб берадиган ва унинг ижтимоий самарадорлигини ошириш имкониятларига замин яратадиган узок ва ўрта муддатга мўлжалланган “Университетни Педагогик таълим инновацион кластери асосида ривожлантириш” Стратегияси асосида фаолият олиб боради.

Стратегия республикамизнинг мактабгача, мактаб ва мактабдан ташқари таълим муассасаларининг тарбиячиларга, бошланғич синф ўқитувчиларга, айниқса аниқ фанлар ва чет тиллари бўйича ўқитувчиларга бўлган эҳтиёжларини кондириш, туманлар ва қишлоқ жойларидаги таълим муассасаларини юқори малакали педагог кадрлар билан таъминлаш ҳамда халқаро стандартлар даражасига мос олий маълумотли педагогик кадрлар тайёрлаш тизимини жойларда ташкил этишни янада такомиллаштириш ва таълим сифатини илғор хорижий тажрибалар ҳамда рақамлаштириш технологиялари ёрдамида яхшилашни кўзда тутади.

Бир сўз билан айтганда ушбу Стратегия Университет-3.0 (Таълим, фан ва инновация) – моделидан Университет 4.0 (Таълим, фан, инновация ва жамият билан рақамлашган ўзаро алоқа) моделига ўтиши учун дастур сифатида хизмат қилади.

Стратегиянинг Миссияси - Илғор хорижий тажрибалар ёрдамида ишлаб чиқилган замонавий таълим дастурлари, илм-фан ва амалиёт янгилиги ва инновацион таълим амалиёти ютуқлари ҳамда рақамлаштириш технологиялари уйғунлашган ижтимоий ҳамкорликни кучайтириш орқали университет халқаро имиджини яратишдан иборат.

ЧДПУнинг Стратегик мақсади – илғор хорижий тажрибалар асосида ишлаб чиқилган замонавий таълим дастурлари, психологик-педагогик фанлар ва инновацион таълим амалиёти ютуқлари, ижтимоий ҳамкорлик асосида юқори малакали мутахассислар тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва малакасини оширишдан иборат.

ЧДПУнинг Истиқболли нигоҳи – Сифатли таълим, илғор тадқиқот, инновацион экотизим ва жамият билан ўзаро рақамлашган алоқага эга халқаро даражадаги университет бўлиш.

ЧДПУнинг шиори – Барчаси шу ердан ва шу ондан бошланади (It all starts here and at this time) (Все начинается здесь и в это время)

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 27 июлдаги “Тошкент вилояти Чирчиқ давлат педагогика институтини ташкил этиш тўғрисида”ги ПҚ-3152 сонли қарори асосида Тошкент вилояти мактабгача, мактаб ва мактабдан ташқари таълим муассасаларининг тарбиячилари, бошланғич синф ўқитувчиларини, айниқса аниқ фанлар ва чет тиллари бўйича ўқитувчиларга бўлган эҳтиёжларини қондириш, туманлар ва қишлоқ жойларидаги таълим муассасаларини юқори малакали педагог кадрлар тайёрлаш тизимини жойларда ташкил этишни янада такомиллаштириш ва таълим сифатини яхшилаш мақсадида ташкил этилган бўлиб, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 14 апрелдаги “Тошкент вилояти Чирчиқ давлат педагогика институти фаолиятини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги 213 – сонли, 2021 йил 29 июлдаги “Чирчиқ давлат педагогика институти ҳузуридаги Тошкент тумани хизмат кўрсатиш ва сервис техникумининг Чирчиқ филиалини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида” 472 – сон қарорлари асосида унинг фаолияти янада такомиллаштирилди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 9 августдаги “Олий таълим муассасаларига педагогика йўналишида махсус сиртқи бўлимларни ташкил этиш тўғрисида”ги 3183-сонли қарорларига мувофиқ Чирчиқ давлат педагогика университети ҳузурида махсус сиртқи бўлими ташкил этиш тўғрисидаги, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 26 сентябрдаги “Педагог кадрларни тайёрлаш, халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3289 сонли қарорларига асосан Тошкент вилояти халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш институти Тошкент вилояти Чирчиқ давлат педагогика институти ҳузуридаги халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий марказига айлантирилди. Шунингдек, ушбу қарор асосида Тошкент вилояти Чирчиқ давлат педагогика институти Халқ таълими вазирлиги тизимидан Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги тасарруфига ўтказилди.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 22 майдаги “Олий ўқув юртидан кейинги таълим тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 304-сонли қарори, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2909-сонли қарори, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 27 июлдаги “Олий маълумотли мутахассислар тайёрлаш сифатини оширишда иқтисодиёт соҳалари ва тармоқларининг иштирокини янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3151-сонли қарори, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 27 июлдаги “Ўзбекистон Республикаси Президентининг истиқболли ёш педагог ва илмий кадрларнинг малакасини ошириш “Истеъдод” жамғармаси фаолиятини янада такомиллаштириш тўғрисида”ги ПФ-5121-сон Фармони, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 7 майдаги “Иқтисодиёт тармоқлари

ва соҳаларига инновацияларни жорий этиш механизмларини такомиллаштириш бўйича кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 3698-сонли қарори, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 июндаги “Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда оширилаётган кенг қамровли ислохотларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 3775-сонли қарори, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 12 январдаги “Илмий-инновацион ишланма ва технологияларни ишлаб чиқаришга тадбиқ этишнинг самарали механизмларини яратиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 24-сонли қарори, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 5 июлдаги “Тошкент шаҳрининг Яшнобод туманидаги инновация технопарки фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 468-сонли қарорларида белгиланган вазифаларни бажариш ва Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги Ҳайъатининг 2018 йил 02 октябрдаги 5/4 сонли қарорида белгиланган вазифалар ижросини таъминлаш бўйича чора-тадбирлар режаси ишлаб чиқилди ва асосий вазифалар белгилаб олинди ҳамда илмий салоҳиятни ошириш бўйича режали ишлар амалга оширилмоқда.

2019 йилдан бошлаб Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги №ПФ58-47-сонли Фармони, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 19 июлдаги “Олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрларни мақсадли тайёрлаш тизимини такомиллаштириш тўғрисида”ги №606-сонли, 2019 йил 24 декабрдаги “Илм-фан ва таълим соҳасидаги давлат ташкилотларида илмий, илмий-педагогик ва меҳнат фаолияти билан шуғулланувчи илмий даражага эга ходимларга кўшимча ҳақ тўлаш тартиби тўғрисида”ги №1030-сонли қарорлари, 2019 йил 2 декабрдаги “Самарадорликнинг энг муҳим кўрсаткичлари (Key Performance Indicators - KPI) асосида олий таълим муассасалари раҳбар ходимлари фаолиятини баҳолаш тизимини амалиётга татбиқ қилиш тўғрисида”ги №1100-сонли буйруқлари ижросини таъминлаш бўйича амалий ишлар бажарилмоқда.

Бундан ташқари, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 10 февралдаги “Бинар (иккиталик) ҳимоя тизими асосида талабгорларга фан доктори (DSc) ва фалсафа доктори (PhD) илмий даражаларини беришни ташкил қилиш чора тадбирлари тўғрисида”ги 74-сонли қарори, Ўзбекистон Республикасининг “Илм фан ва илмий фаолият тўғрисида”ги Қонунчилик палатаси томонидан 2019 йил 22 июлда қабул қилинган ва Сенат томонидан 2019 йил 11 октябрда мақулланган қонуни, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 6 ноябрдаги “Илмий даражали кадрларни қайта тайёрлаш жараёнларининг шаффофлигини таъминлаш ва самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 696-сонли қарори, Ўзбекистон Республикаси Инновацион Ривожланиш вазирлиги ва Ўзбекистон Республикаси Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлигининг Ўзбекистон Республикаси Адлия Вазирлигида

3284 рақами билан рўйхатдан ўтказилган “Вазирлар Маҳкамасининг 2009 йил 18 августдаги 233-сонли қарори билан тасдиқланган Бюджет маблағлари ҳисобига фундаментал, амалий тадқиқотлар ва инновацион ишларнинг илмий-техника дастурларини амалга оширишда қатнашувчи илмий-тадқиқот муассасалари илмий ва раҳбар ходимларнинг базавий лавозим маошлари миқдорларига ўзгартириш киритиш тўғрисида”ги қарори ҳамда Ўзбекистон Республикаси Инновацион Ривожланиш вазирлигининг 2020 йил 13 октябрдаги 03-10/3876-сонли хати ижросини таъминлаш бўйича амалий ишлар бажарилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Педагогик таълим соҳасини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2020 йил 27 февралдаги ПҚ-4623-сон қарори ижросини таъминлаш бўйича Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 14 апрелдаги “Чирчиқ давлат педагогика университети фаолиятини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 213-сонли қарори ижросини таъминлаш бўйича амалий ишлар бажарилмоқда.

Педагогик касбнинг юқори ижтимоий-маданий бурчини бажаришда, яъни ҳозирги замон педагогик нормалар шароитида касбий вазифаларни компетентлик асосида ҳал этишда, таълим мутахассисларини тайёрлашда, қайта тайёрлаш ва малакасини оширишда, кенг дунёқараш ва маънавий-ахлоқий фаолиятни илғор ахборот технологиялари билан яхлит ҳолда олиб боришни тақозо этади. Таълим стандартларида бу яхлитлик бўлажак таълим мутахассисида уч гуруҳ компетенцияларни шакллантириш орқали таъминланади. Булар:

академик – ўқиш, билиш ва билим олиш кўникмаларни ўз ичига олувчи;
ижтимоий-шахсий – маданий кадриятларга таянган ҳолда жамият ва давлатнинг ғоявий, ахлоқий кадриятларига доир билимлар ва уларга амал қилиш йўллари йўганишни ўз ичига олувчи;

касбий – танланган касбий фаолият соҳасида вазифа ечимини топиш, унда рақамли технологияларни қўлай олиш, режа тузиш ҳамда улар ижросини таъминлаш лаёқатини ўз ичига олувчи компетенциялардир

Замонавий рақобатбардош таълим мутахассиси – бу ўзида фундаментал ва амалий тайёргарликни моҳирона мужассам этган, анъанавий ва янги халқаро даражадаги касбий вазифаларни компетентли бошқарувчи профессионалдир.

Замонавий педагог турли даражада ривожланган болалар ва уларнинг ота-оналари, жумладан: - иқтидорли, - ота-оналарини йўқотган, - ногирон ва алоҳида психологик ривожланишга эга, - ижтимоий жиҳатдан ҳавфли шароитда қолган, - алкоголь, наркотик, психотроп моддалар қабул қилишга мойил, - хулқида оғишганлик кузатилган (девиант), - киберқарамлилик болалар ҳамда уларнинг оилалари, шу билан бир қаторда носоғлом оилалар билан ишлашни, инклюзив таълим шароитида дадил фаолият юритишни, педагогик кўмак, медиация, тьюторлик технологияларига эга бўлишини тақозо этади.

Замонавий педагогга миллий-маданий анъаналарни ва шу асосда жамият аҳиллигини сақлаш каби ўзига хос алоҳида вазифалар юклатилади. Шунинг учун ҳам педагог ўзининг куч ва ғайратини нафақат таълим, балки тарбия жараёнига ҳам сарфламоғи лозим. Тарбия соҳасида қуйидаги компетенциялар муҳим саналади:

глобаллашган замонда болаларни маънавий-ахлоқий тарбиялашга тайёргарлик; ижтимоий аҳамиятга эга ташаббусларни ташкил этиш (волонтёрлик фаолияти, хайрия акциялари ва бошқалар);

ўқувчилар орасида соғлом ғояни тарғиб қилиш тажрибасига эга бўлиш, соғлом ҳаёт тарзи, зарарли одатлар, тажовузкорлик аянчли оқибатларни олдини олиш бўйича кўникмаларни ривожлантириш.

Таълим мутахассисларини тайёрлаш ўқувчиларда барча компетенциялар уйғунлигида билим ва кўникмаларни шакллантирувчи восита, шахсий, ижтимоий, касбий характердаги масалаларни ҳал қилиш, кўпқиррали қобилият каби характерларни интеграллашган натижавий ютуқларини таъминлаши зарур.

Замонавий педагогик таълим мазмуни очиқ ва доимий ривожланишда бўлиши, бўлажак педагогларда самарали педагогик фаолиятни амалга оширишга қаратилган ижобий муҳит яратиши, мустақил таълим ва тарбияга қизиқиш рағбатини уйғотиши, вариатив ва инвариант компонентларни қамраб олиши, педагогик тизим ва фаолият генезисини акс эттириши, шахс ва жамиятнинг истиқбол талабларига мослашиши, умумбашарий билимларнинг фанлараро хусусиятларини акс эттира олиши, узлуксиз педагог таълим муҳитида ўз ўрнини топа олиши лозим.

Режалаштирилган натижалар қуйидагилардан иборат:

-педагогик таълимнинг мақсади - янги долзарб компетенцияларга эга замонавий педагог кадрларни шакллантириш;

-ижтимоий мослашган, янги компетенцияларни ўзида мужассамлаштирган ва узлуксиз педагогик таълимнинг барча босқичларидаги таълим стандартлари ва компетентлик моделларини белгиловчи педагогнинг касбий стандартини ишлаб чиқиш;

-педагогик таълимнинг янги таълим стандартлари ва янгиланган ўқув ва дастурий ҳужжатлар яратиш;

таълим стандартларининг янги илмий ва методик таъминотини йўлга қўйиш.

Ҳозирги кунда университет жамоаси олдида турган асосий вазифалардан бири таълим тизими учун етук мутахассислар тайёрлаб бериш сифатини ошириш, фундаментал ва илмий-амалий тадқиқот ишларини ривожлантириш, илмий-тадқиқот ишларининг натижаларини ишлаб чиқаришга жорий этиш, юқори малакали илмий ва илмий-педагогик кадрлар тайёрлаш, иқтидорли талабаларни илмий-тадқиқот ишларига кенг жалб қилиш, кафедра ва лабораторияларнинг моддий-техника базасини мустаҳкамлаш, патент ва ихтиролар соҳасидаги ишларни такомиллаштириш, хорижий давлатлар ва МДХ олимлари билан илмий алоқаларни мустаҳкамлаш, ЎзФА тармоқ институтлари билан ва бошқа марказий олий

Ўқув юртлари билан илмий ҳамкорлик самарадорлигини янада оширишдан иборат. Истиқболда тузилган аниқ чора-тадбирлар режаси асосида илмий салоҳиятни ошириб бориш, фан – таълим – ишлаб чиқариш интеграциясини кучайтириш, ёшларни илмий фаолиятга кенг жалб қилиш ва уларни қўллаб-қувватлаш, ўқув – илмий лабораториялар яратиш ва илмий –тадқиқот ишларининг самарадорлигини кескин ошириш ҳамда иқтидорли талабалар, магистрларни илмий ишларга кенг жалб этиш асосий устувор вазифалар ҳисобланади.

Университетнинг 2024 йилда илмий-тадқиқот ва инновацион фаолиятини ривожлантириш ҳамда илмий педагогик кадрлар тайёрлаш бўйича ишлари қуйидаги йўналишлар асосида олиб борилди:

- педагогик таълим инновацион кластери дастури доирасида таълим мазмуни ва сифатини ошириш, рақобатбардош, юқори билим ва кўникмаларга эга олий маълумотли педагоглар тайёрлашда самарадор бўлган педагогик таълим инновацион кластерларини жорий қилиш;

- тарбия ва ўқитиш методикалари, ахборот-коммуникация технологиялари ва хорижий тилларни пухта ўзлаштирган, таълим жараёнида замонавий педагогик технологияларни қўллаш кўникмаларига эга бўлган, ўз касбига садоқатли юқори малакали профессионал педагог кадрлар тайёрлаш;

- илғор хорижий тажриба асосида педагогика таълим соҳасининг бакалаврият таълим йўналишлари ва магистратура мутахассисликлари бўйича ўқув режа ва фан дастурларини бўлажак педагогларда фаоллик ва ирода, етакчилик, онг ва ўзини англаш, мустақил фикрлаш, қарор қабул қилиш каби кўникмаларни шакллантиришни назарда тутган ҳолда такомиллаштириш;

- таълим жараёнига рақамли технологияларни жорий этиш, ахборот-коммуникация ва таълим технологияларининг интеграциясини таъминлаш;

- ўқув ва илмий лабораторияларни халқаро стандартларга мос келадиган замонавий қурилмалар ҳамда асбоб-ускуналар билан жиҳозлаш орқали самарадорлиги юқори бўлган илмий-тадқиқот ишларини ривожлантириш;

- педагог кадрларнинг илмий салоҳияти, касбий ва малакавий билим даражасини узлуксиз ривожлантириб бориш механизмларини жорий этиш, педагогик маҳоратни ривожлантиришда хорижий олий таълим муассасаларининг илғор тажрибасидан кенг фойдаланиш ҳамда уларда замонавий ахборот-коммуникация ва таълим технологияларини қўллаш борасидаги малака ва кўникмаларни доимий ривожлантириб боришнинг тизимли чораларини белгилаш;

- халқаро баҳолаш дастурлари (PISA, TIMSS, PIRLS) ва STEAM стандартларидан фойдаланиш, аниқ ва табиий фанларни ўқитиш ва баҳолашнинг замонавий шакллари, методлари ва технологияларини жорий этиш ҳамда ушбу билим ва кўникмаларга эга бўлган педагогларини тайёрлаш;

- хорижий олий таълим муассасалари билан ҳамкорликда қўшма таълим дастурлари асосида кадрлар тайёрлашни ривожлантириш;

талабалар амалиётини мақсадли ташкил этиш ва ишга жойлашишига ҳар томонлама кўмаклашиш механизмларини шакллантириш;

- педагогика соҳасидаги ўқув адабиётлари мазмуни ва сифатини мониторинг қилиш, хорижий адабиётлардан қўшимча ёки муқобил ўқув адабиётлари сифатида фойдаланишни кенгайтириш, кутубхона фондларини мунтазам равишда янгилаб бориш.

Ў БОБ. ИЛМИЙ- ТАДҚИҚОТ ФАОЛИЯТИНИНГ УМУМИЙ ТАВСИФИ

1.1. Чирчиқ давлат педагогика университетининг илмий-тадқиқот фаолиятини устувор йўналишлари

Педагогик таълим мазмуни янгилаш, таълимнинг ахборот муҳити ва илмий-методик таъминоти бойитиш, шу билан бирга мактабгача таълим тизимини янада такомиллаштириш, болаларни мактабга тайёрлаш даражасини тубдан яхшилаш, таълим-тарбия жараёнига замонавий таълим дастурларини татбиқ этиш, ёшларни ҳар томонлама интеллектуал, ахлокий, эстетик ва жисмоний қобилиятларини ривожлантириш борасида таълим муассасаларини малакали педагог кадрлар билан таъминлаш мақсадида университетда қуйидаги илмий-тадқиқот фаолиятини устувор йўналишлари белгилаб олинган:

- таълим мутахассислари касбий компетентлигига доир ижтимоий ва иқтисодий талабларини ҳисобга олган ҳолда узлуксиз педагогик таълим мазмуни ва мақсадларини янгилаш;

- муаммоли тадқиқот, фаол, жамоавий таълим олиш стратегияси асосида таълим жараёни шакллари, методлари, технологияларини модернизация қилиш;

- ҳозирги замон психологик-педагогик фанлар, таълим амалиёти, узлуксизлик ва изчиллик тамойилларининг долзарб муаммоларини ҳисобга олган ҳолда юқори малакали илмий ходимларни тайёрлашни такомиллаштириш;

- психолого-педагогик илм ва самарали таълим амалиёти субъектлари таълим имкониятларини интеграллаш асосида педагогик таълим сифатини оширишга қаратилган ривожлантиришнинг кластер моделига ўтиш.

- ахборотлашган тизим шароитида узлуксиз педагогик таълим тизими воситаларини такомиллаштириш ҳамда педагогик касб мавқеини ошириш.

Жумладан, **“Математика ва информатика факультетининг устувор илмий тадқиқот йўналишлари:**

1. Электрон таълим назарияси ва методикасини математик моделлаштириш (йўналиш раҳбари Д.М.Махмудова – DSc);

2. Инновацион технологиялар воситасида математик саводхонликни ривожлантириш (йўналиш раҳбари Г.Б.Қузманова – PhD);

3. Математик анализнинг замонавий масалалари (йўналиш раҳбари Абраев Бунёд – PhD);

4. Математик физика тенгламалари учун чегаравий масалалар (йўналиш раҳбари Б.Усмонов – PhD);

5. Алгебранинг замонавий масалалари (йўналиш раҳбари Ж.Адашов);

6. Электрон дастурий воситалар ёрдамида талабаларнинг мустақил ижодий фаолиятини ташкил этиш методикаси (йўналиш раҳбари А.Хуррамов – PhD);

7. Информатика фанини ўқитишда инновацион технологияларни қўллаш технологиялари (йўналиш раҳбари Г.Юлдашова – PhD).

“Физика ва кимё факультети”нинг устувор илмий тадқиқот йўналишлари:

1. Физика - астрономия курслари интеграциясини таъминлашда мустақил таълим тартибини жорий этишнинг илмий-назарий асослари (йўналиш раҳбари А.Тиллабоев – PhD);

2. Узлуксиз таълимда табиий илмий саводхонлик компетенцияларни ривожлантириш моделини такомиллаштириш (йўналиш раҳбари К.Суяров – PhD);

3. Барқарор тараққиёт таълими тушунчалари ёрдамида кимёни ўқитиш (йўналиш раҳбари Р.Эшчанов – DSc);

4. Интерполимер комплекслар ва фосфогипс асосида композицион материалларни ўрганиш (йўналиш раҳбари Қ.Комилов – PhD).

“Табиий фанлар факультети”нинг устувор илмий тадқиқот йўналишлари:

1. Узлуксиз таълим тизимида табиий - илмий саводхонлик даражасини яхшилаш (йўналиш раҳбари А.Рахимов – DSc);

2. Педагогик таълимнинг инновацион класстери асосида табиий фанларни ўқитиш сифат ва самарадорлигини ошириш (йўналиш раҳбари А.Рахматуллаева – PhD);

3. Ўзбекистон иқлим шароитида тарқалган фитопатоген вирусларни ажратиш, хусусиятларини аниқлаш ва диагностика қилиш (йўналиш раҳбари Д.Жавлиева – PhD);

4. Муҳим қишлоқ хўжалиги экинларида сув танқислигига боғлиқ бўлган хусусиятларнинг физиологик жараёнларга боғлиқлигини ўрганиш (йўналиш раҳбари М.Холиқова – PhD);

6. Эволюция жараёнида вужудга келган биохилма-хилликларни илмий аҳамиятини ўрганиш ва генетик-селекцион тадқиқотлар учун янги манбалар яратиш (йўналиш раҳбари Б.Х.Аманов – DSc);

7. “Табиий - илмий саводхонликни ривожлантириш ва ҳалқаро даражадаги педагогларни тайёрлаш борасида STEAM ўқитиш методикасини такомиллаштириш (йўналиш раҳбари Н.А.Мирзаева – PhD)”

8. Амударё дельтаси геотизимларини тизимли-структурали таҳлил қилиш (йўналиш раҳбари А.К.Уразбаев – PhD).

“Гуманитар фанлар факультети”нинг устувор илмий тадқиқот йўналишлари:

1. Ўзбек тилини фанлараро интеграция асосида ўқитишни такомиллаштириш. (йўналиш раҳбари Ш.М. Мухтарова – PhD);

2. Ўзбек адабиётшунослиги соҳасида янги қўшимча таълим дастурларини яратиш (йўналиш раҳбари С.Матчанов – DSc);

3. Замонавий рақамли технологиялардан фойдаланилган ва таълимни индивидуаллаштиришни таъминлайдиган таълим дастурлари, курсларини ишлаб чиқиш ва жорий этиш (йўналиш раҳбари А.Давлатова – DSc);

4. Корпусная лингвистика и цифровые технологии (йўналиш раҳбари Э.Сергеева – PhD);

5. Персонализация обучения в проекции трендов современного образования

6. Кластер тизимида тарих фанларини ўқитишнинг модификацион методикасини такомиллаштириш (йўналиш раҳбари С.А.Тоштемирова – PhD);

7. Кластер тизимида бўлажак тарих ўқитувчиларини касбий фаолиятга тайёрлаш методикаси (йўналиш раҳбари Ф.Ш.Илмуродова – PhD);

8. Тарих фанларини ўқитишда мнемоник технологиялар асосида хотирани ривожлантириш методикаси (йўналиш раҳбари М.Х.Саъдуллаева – PhD);

9. Тарих фанларини инновацион ахборот таълими муҳитида ўқитиш методикаси - методикаси (йўналиш раҳбари У.Х.Йўлдошев – PhD);

10. Индивидуал ёндашув асосида ўқувчиларнинг рақамли ўрганиш кўникмаларини шакллантиришнинг педагогик-психологик асослари (йўналиш раҳбари З. Н. Ҳайдарова – PhD);

11. Глобал тарих: Россия ва Марказий Осиё муносабатлари - (йўналиш раҳбари О.А.Махмудов – PhD);

12. Марказий Осиёда миллатлараро муносабатлар оптималлашувининг фалсафий-функционал тадқиқи (йўналиш раҳбари Н.А. Назаров – PhD);

13. Янгиланаётган Ўзбекистонда инсон капиталини ривожлантиришда таълим кластерининг имконият ва истиқболлари (йўналиш раҳбари Г.Ғ. Ғаффарова – PhD);

“Педагогика факультети”нинг устувор илмий тадқиқот йўналишлари:

1. Узлуксиз инклюзив таълимнинг педагогик-психологик асослари (йўналиш раҳбари Ф.У.Қодирова – DSc);

2. Кадрлар тайёрлашнинг инновацион шакллари жорий этиш (йўналиш раҳбари Д.А.Пулатова – PhD);

3. Компетентли ёндашув асосида узлуксиз педагогик таълим методикасини такомиллаштириш (йўналиш раҳбари Ж.Э.Усаров – DSc);

4. Педагогик фаолиятда рефлексив компетенцияни шакллантириш асосида намунавий ўқитувчи мезонларини ишлаб чиқиш (йўналиш раҳбари М.Раҳмонова – DSc);

5. Академик ва касбий компетенцияларни ривожлантириш методикасини такомиллаштириш (йўналиш раҳбари И.Д.Қодиров – PhD);

6. Ижтимоий талаб асосидаги компетентлик моделларини белгиловчи педагогнинг касбий стандартини такомиллаштириш (йўналиш раҳбари М.Раҳмонова – DSc);

7. Илмий иш мавзулари базасини халқаро тенденцияларга мувофиқ ишлаб чиқиш ва ўзаро интегратив бажарилишини таъминлаш (йўналиш раҳбари У.Н. Ходжамкулов – DSc);

8. Сифатли таълимнинг психологик детерминентларини тадқиқ этиш (йўналиш раҳбари О.Авлаев – PhD);

9. Индивидуал таълим тамойиллари асосида талабаларнинг илмий ва ижодий фаолият трансформациясини таъминлаш (йўналиш раҳбари Н.Ж.Эшнаев – PhD);

10. Касбий фаолиятда инсон капиталини бошқаришнинг компетентли ёндашувларини тадқиқ этиш (йўналиш раҳбари Д.О.Химматалиев – DSc).

“Мактабгача таълим факультети”нинг устувор илмий тадқиқот йуналишлари:

1. Мактабгача таълим ташкилотларида инклюзив таълимни ташкил этиш (йўналиш раҳбари Т.Л.Хурвалиева – DSc);

2. Болаларни интеллектуал қобилиятларини ўйин орқали ривожлантириш асослари (йўналиш раҳбари Л.К.Наримбаева – PhD);

3. Мактабгача таълим ташкилотларида артпедагогикадан кенг фойдаланиш (йўналиш раҳбари М.С.Ачилова – PhD);

4. STEAM ёндашуви асосида болаларни ижодий қобилиятларини ривожлантириш (йўналиш раҳбари Х.Р.Носирова – PhD).

“Туризм факультети”нинг устувор илмий тадқиқот йуналишлари:

1. Инглиз тилини ўқитиш методикасини такомиллаштириш (йўналиш раҳбари М.А.Юсупова – PhD);

2. Инглиз тили таълимида тил ва адабиётнинг ўзаро таъсири (йўналиш раҳбари Д.В.Абдураманова – PhD);

3. Ахборот технологиялари ва интерфаол усуллар орқали хорижий тил ўқитиш методикасини такомиллаштириш (йўналиш раҳбари Д.К.Рузметова – PhD);

4. Педагогик таълим инновацион кластери воситасида немис тилини ўқитиш ва ўрганиш механизмларини хорижий тажриба асосида такомиллаштириш (йўналиш раҳбари З.И.Санакулов – PhD);

5. ЧЭТЗда тоғ-курорт зоналари ва туризм қишлоқларни ташкил этишнинг табиий географик асослари (йўналиш раҳбари Ш.М.Шарипов – DSc);

6. Корпус лингвистикасини яратиш ва филологик тадқиқотлар (йўналиш раҳбари Д.Б. – PhD);

7. Хорижий тил ўқитиш методикасида мустақил таълимни ташкил этиш ва талабалар мобиллиги (йўналиш раҳбари Н.Р.Саиткулова – PhD);

8. Хорижий тил ўқитиш методикасида замонавий ёндашувларни татбиқ этиш (йўналиш раҳбари Қ.Ш.Махмудов – PhD).

“Санъатшунослик факультети”нинг устувор илмий тадқиқот йуналишлари:

1. Тасвирий санъат, дизайн, мусиқа ва муҳандислик соҳаларига татбиқ этиш асосида педагогик таълим инновацион кластер фаолиятини такомиллаштириш, фанлараро таълим интеграцияси, индивидуал ҳамда инклюзив таълимни ташкил этиш муаммолари (йўналиш раҳбари Х.Э.Султанов – PhD);

2. Тасвирий санъат фанини ўқитиш, мустақил таълим фаолиятини ташкил этиш ва бошқариш методикасини кластер ёндашуви асосида такомиллаштириш (йўналиш раҳбари Б.Б.Байметов – PhD);

3. Глобаллашув шароитида замонавий кластер ёндашуви ва “Устоз-шоғирд” анъаналари уйғунлиги орқали тасвирий санъат соҳасидаги таълим-тарбия жараёнини ташкил этиш муаммолари (йўналиш раҳбари Х.Э.Султанов – PhD);

4 .Бўлажак муסיқа ўқитувчиларда миллий муסיқа меросини ривожлантириш тизимини такомиллаштириш (йўналиш раҳбари М.С.Мухитдинова – PhD);

5. Таълим кластери асосида бўлажак муסיқа ўқитувчиларини инклюзив таълимга тайёрлаш (йўналиш раҳбари Ш.Махкамова – PhD);

6. Талабаларни лойиҳалаштириш қобилиятларини проекциялаш усулларидан фойдаланиб ривожлантириш методикасини такомиллаштириш (йўналиш раҳбари Б.Б.Кукиев – PhD).

“Жисмоний маданият факультети”нинг устувор илмий тадқиқот йўналишлари:

1. Миллий спорт турларини ривожланишини (йўналиш раҳбари А.Р.Абдулахатов – PhD);

2. Таълим муассасалари кесимида жисмоний тарбия дастурларини узлуксиз-узвийлигини илмий тадқиқ қилиш (йўналиш раҳбари Ф.А.Нурматов – PhD);

3. Технологик таълим йўналиши талабаларини касбий-шахсий ривожлантиришда халқ хунармандчилиги элементларини татбиқ этиш (йўналиш раҳбари Ж.А.Хамидов – PhD);

1.2. Чирчиқ давлат педагогика университети профессор-ўқитувчиларнинг илмий салоҳияти 2024 (2023) йил бўйича

2024 йилда университетда мавжуд 857 штат бирлигида жами **940** (578) нафар профессор-ўқитувчилар, жумладан 479 нафари асосий штатда, 448 нафари ўриндошлик асосида педагогик фаолият олиб борди. Асосий штатда фаолият олиб бораётган профессор-ўқитувчилардан илмий даражага эга бўлганлар сони **230 (217)** нафарни (44 нафар DSc, 186 нафар PhD), илмий салоҳият **48,0 (37.6)%** ни ташкил этади. Жами профессор-ўқитувчиларга нисбатан илмий салоҳият **...()**%ни ташкил этади. Университетнинг илмий салоҳияти охириги уч йилдаги ўсиш сурати 15% ни ташкил этади.

Математика ва информатика факультетида жами 62 нафар профессор-ўқитувчи 56,5 штат бирлигида фаолият олиб боради. Булардан, 45 нафари асосий штатда, 17 нафари ўриндошлик асосида фаолият олиб боради. Шундан илмий даражага эга бўлганлар сони асосий штатда 12 (11) нафар, ўриндошлик асосида 8 нафарни ташкил этади. Илмий салоҳият асосий штат бўйича 27 (21,6)% га тенг бўлган.

Физика ва кимё факультетида жами 59 нафар профессор-ўқитувчи 44,75 штат бирлигида фаолият олиб боради. Булардан, 55 (51) нафари асосий штатда, 4 нафари ўриндошлик асосида фаолият олиб боради. Шундан илмий даражага эга бўлганлар сони асосий штатда 18 (34) нафар, ўриндошлик

асосида 4 нафарни ташкил этади. Илмий салоҳият асосий штат бўйича 45 (66,7)% га тенг бўлган.

Табиий фанлар факультетида жами 65 нафар профессор-ўқитувчи 46,5 штат бирлигида фаолият олиб боради. Булардан, 40 (55) нафари асосий штатда, 25 нафари ўриндошлик асосида фаолият олиб боради. Шундан илмий даражага эга бўлганлар сони асосий штатда 22 (29) нафар, ўриндошлик асосида 11 нафарни ташкил этади. Илмий салоҳият асосий штат бўйича 55,0 (52,7)% га тенг бўлган.

Гуманитар фанлар факультетида жами 134 нафар профессор-ўқитувчи 135,5 штат бирлигида фаолият олиб боради. Булардан, 94 (111) нафари асосий штатда, 40 нафари ўриндошлик асосида фаолият олиб боради. Шундан илмий даражага эга бўлганлар сони асосий штатда 38 (54) нафар, ўриндошлик асосида 29 нафарни ташкил этади. Илмий салоҳият асосий штат бўйича 41,0 (48,6)% га тенг бўлган.

Педагогика факультетида жами 23 (...) нафар профессор-ўқитувчи 17 (...) штат бирлигида фаолият олиб боради. Булардан, ... (73) нафари асосий штатда, 13 нафари ўриндошлик асосида фаолият олиб боради. Шундан илмий даражага эга бўлганлар сони асосий штатда 4 (35) нафар, ўриндошлик асосида 6 (...) нафарни ташкил этади. Илмий салоҳият асосий штат бўйича ... (47,9)% га тенг бўлган.

Мактабгача таълим факультетида жами 51 нафар профессор-ўқитувчи 51,5 штат бирлигида фаолият олиб боради. Булардан, 33 (37) нафари асосий штатда, 18 нафари ўриндошлик асосида фаолият олиб боради. Шундан илмий даражага эга бўлганлар сони асосий штатда 9 (12) нафар, ўриндошлик асосида 9 нафарни ташкил этади. Илмий салоҳият асосий штат бўйича 36,5 (32,4)% га тенг бўлган.

Туризм факультетида жами 79 нафар профессор-ўқитувчи 85,5 штат бирлигида фаолият олиб боради. Булардан, 52 (74) нафари асосий штатда, 27 нафари ўриндошлик асосида фаолият олиб боради. Шундан илмий даражага эга бўлганлар сони асосий штатда 9 (9) нафар, ўриндошлик асосида 6 нафарни ташкил этади. Илмий салоҳият асосий штат бўйича 17,3 (12,2)% га тенг бўлган.

Санъатшунослик факультетида жами 40 нафар профессор-ўқитувчи 17 44,5 штат бирлигида фаолият олиб боради. Булардан, 38 (37) нафари асосий штатда, 4 нафари ўриндошлик асосида фаолият олиб боради. Шундан илмий даражага эга бўлганлар сони асосий штатда 6 (5) нафар, ўриндошлик асосида 2 нафарни ташкил этади. Илмий салоҳият асосий штат бўйича 27 (13,5)% га тенг бўлган.

Жисмоний маданият факультетида жами 56 нафар профессор-ўқитувчи 53 штат бирлигида фаолият олиб боради. Булардан, 45 (40) нафари асосий штатда, 11 нафари ўриндошлик асосида фаолият олиб боради. Шундан илмий даражага эга бўлганлар сони асосий штатда 13 (12) нафар, ўриндошлик асосида 3 нафарни ташкил этади. Илмий салоҳият асосий штат бўйича 30 (30,0)% га тенг бўлган.

Бошланғич таълим факультетида жами 79 нафар профессор-ўқитувчи 58,25 штат бирлигида фаолият олиб боради. Булардан, 43 (49) нафари асосий штатда, 36 нафари ўриндошлик асосида фаолият олиб боради. Шундан илмий даражага эга бўлганлар сони асосий штатда 10 (16) нафар, ўриндошлик асосида 16 нафарни ташкил этади. Илмий салоҳият асосий штат бўйича 23,2 (32,7)% га тенг бўлган.

1.3. Чирчиқ давлат педагогика университетида давлат илмий-техника дастурлари доирасида бажарилаётган илмий-тадқиқот ишлари

Ўзбекистон Республикаси ва Жаҳон банки Халқаро тараққиёт уюшмаси ўртасида 2021 йил 17 майда имзоланган 6784-UZ-сонли молиявий келишувга асосан эълон қилинган танловлар ғолиби сифатида Чирчиқ давлат педагогика университетида бугунги кунда иккита илмий лойиҳа REP-04032022/206 рақамли “Оптоэлектроник тармоқларда созланиши мумкин бўлган оптик гармоник ишлаб чиқариш ва солитон ташиш” мавзусидаги (лойиҳа қиймати 450000 АҚШ доллари) ҳамда REP-05032022/235 рақамли “Графенда яратилган релятивистик сунъий атомларда ўта тезкор ҳодисалар ва вакуум эффектлари” (лойиҳа қиймати 200000 АҚШ доллари) бажарилмоқда.

1.4. Чирчиқ давлат педагогика университетида иқтисодиёт соҳаларига оид корхона ва ташкилотлар билан ҳамкорликда бажарилаётган хўжалик шартномалари

Ҳозирги кунда университетда иқтисодиёт соҳаларига оид корхона ва ташкилотлар билан ҳамкорликда бажарилаётган қуйидаги хўжалик шартномалари мавжуд, жумладан “Ўзбекистон ислом цивилизация маркази” билан Ислом цивилизация марказидаги олимлар билан ҳамкорликда Тошкент вилояти ҳудудида археологик қазилмалар олиб бориш ва топилган тарихий буюмларни ўрганиш. Ҳамкорлар билан биргаликда лойиҳа яратиш, "SAMINJONOV ABRORJON" ЯАТТ билан тузилган шартномада ОТМ, мактаб ва МТМлари учун кўргазмали қуролларни доимий такомиллаштириб бориш, ўқув жараёнидаги мавжуд муаммоларни аниқлашда талабалар ва ўқитувчилар ташкилотдаги ўзаро интеграцион кўргазмали қуролларни тайёрлаш учун, “SOF TOWEL” МЧЖ Онларнинг фарзанд тарбияси ва оилавий муносабатларда педагогик билимларни ошириш мақсадида “Гаджетларсиз ғақиқий дунё” “Сиз ҳар доим ҳам ҳақ эмасиз” мавзуларда семинар тренинг ташкил этиш тўғрисида, “Носиров Ғолибжон Иухамадинович” ЯТТ Илмий ишларни таҳрирлаш тўғрисида, “Профессионал авто-2020” МЧЖ билан матинни рус тилидан ўзбек тилига ёзма таржима қилишни учун корхоналари билан ҳамкорликда илмий тадқиқот ишлари олиб борилмоқда.

Университет ректорининг 05.07.2021 йилдаги “Институтда илмий салоҳиятни ошириш, илм-фан ва инновацияни ривожлантириш” тўғрисидаги 01-180-сонли буйруғи ижросини таъминлашга асосланиб, абитуриентларни

олий таълимга киришга тайёрлов курсларини ташкил қилинган, талабалар билимини янада мустаҳкамлаш ва университетда таълим жараёни сифатини яхшилаш мақсадида тўғараклар фаолият юритмоқда, хўжалик шартнома асосида 15 млн. сўм пул университет ҳисобига туширилди.

Илмий ва методологик кимё кафедраси хўжалик шартнома асосида Илмий ва методологик кимё кафедраси қошидаги (университет ректорининг 04.10.2021 йилдаги буйруғи № 01-241 сон билан тасдиқланган) пуллик шартнома асосида тайёрлов курсларини ташкил этилган ва фаолият юритмоқда.

2024 йил 25 ноябрь куни “TGN print” МЧЖ билан кафедра профессор-ўқитувчилари ўртасида хўжалик шартномаси тузилди ва шартнома асосида муҳаррирлик ҳизмати олиб борилди. Хўжалик шартнома асосида кафедра профессор-ўқитувчилари томонидан 3 500 000 минг сўм университет ҳисобига туширилди.

Muhandislik va kompyuter grafikasi kafedrasida Toshkent viloyati Chirchiq shahar “Barkamol avlod” bolalar maktabi va Toshkent shahridagi Samijonov Abrorjon Rustamjon o‘g‘li YaTT bilan hamkorlikda o‘quv qurollari yetkazib berish (2250000 so‘m pul tushirilgan) bo‘yicha (25.04.2024 yil 1-sonli) shartnoma qilingan.

Tasviriy san‘at va dizayn kafedrasida 2023 yil 19 avgustda “Chirchiq barkamol avlod” bolalar maktabiga o‘quv qurollari yetkazib berish (1000000 so‘m pul tushirilgan) bo‘yicha shartnomalar qilingan.

2023 yil 27 iyunkuni Vista Artista (Gamma) OAJ tomonidan bir yilda 4 marta talabalar o‘rtasidagi ijodiy tanlov, 1 marta Kamalak ART festivalida o‘quvchilarni rag‘batlantirish maqsadida hamkorlik memorandumi tuzilgan. 2023 yilda 75 000000 so‘mlik 2024 yil 7 avgustda hamkorlik memorandumi yangilandi.

Vista Artista (Gamma) OAJ tomonidan 2024 -25 o‘quv yili uchun 120 млн. so‘mga yaqin mahsulotlar Tasviriy san‘at va dizayn kafedrasiga yetkazib berildi. Ushbu mahsulotlar turli ijodiy tanlovlarda talabalarni rag‘batlantirishga yo‘naltirib kelinmoqda.

1.5. Чирчиқ давлат педагогика университетида чет эл грантлари бўйича бажарилган ишлар

Ўзбекистон Республикаси ва Жаҳон банки Халқаро тараққиёт уюшмаси ўртасида 2021 йил 17 майда имзоланган 6784-UZ-сонли молиявий келишувга асосан эълон қилинган танловлар ғолиби сифатида Чирчиқ давлат педагогика университетида бугунги кунда иккита илмий лойиҳа REP-04032022/206 рақамли “Оптоэлектроник тармоқларда созланиши мумкин бўлган оптик гармоник ишлаб чиқариш ва солитон ташиш” мавзусидаги (лойиҳа қиймати 450000 АҚШ доллари) ҳамда REP-05032022/235 рақамли “Графенда яратилган релятивистик сунъий атомларда ўта тезкор ходисалар ва вакуум эффектлари” (лойиҳа қиймати 200000 АҚШ доллари) бажарилмоқда.

Жорий йилда университет профессор-ўқитувчилари Швецария Миллий илмий фонди томонидан эълон қилинган лойиҳа танловларида иштирок этиб,

IZSTZ0_223625 “Тенглик афсоналари: Марказий Осиё илм-фанида гендер тенглик тарихи (1870-1970)” мавзусида халқаро илмий лойиҳа ғолиби бўлишди. Ушбу лойиҳа 2027 йилгача давом этиб, унинг фонди 355 000 швейцария франкига тенг.

2024 йилда Чирчиқ давлат педагогика университетида хорижий университетлар ва илмий марказлар билан тажриба алмашиш, олий таълимнинг турли соҳалари бўйича ўзаро манфаатли ҳамкорликни йўлга қўйиш, иқтидорли ёш педагогларни аниқлаш, уларнинг қобилияти, ижодий салоҳиятларини ривожлантириш, касб малакасини юксалтириш, ривожланган демократик давлатларнинг етук ўқув юртлирида ва марказларида тажриба орттиришига кўмаклашиш, хорижда малака ошираётган ва тажриба орттираётган профессор-ўқитувчиларнинг таълим олиш жараёни, шунингдек, ўқишдан кейинги меҳнат фаолияти мониторингини олиб бориш, уларнинг илмий-педагогик салоҳиятидан самарали фойдаланишга кўмаклашишга алоҳида эътибор бериб келинмоқда.

Шу мақсадда хорижий ҳамкор олий ўқув юртлири илғор тажрибаларини таҳлил қилиш, ҳамкорлар билан Европа Иттифоқи дастурлари доирасидаги лойиҳалар натижаларини амалиётга жорий қилиш, жаҳон таълим соҳасида рўй бераётган ўзгаришлар ва янгиликлар жараёни бўйича ахборотлар алмашиб бориш, университетлар раҳбар ходимлари ва профессор-ўқитувчилари, катта илмий ходим-изланувчилар ва мустақил тадқиқотчиларининг хорижий таълим ва илмий муассасаларига сафарлари давомида ўрганиб келган илғор тажрибаларининг амалиётга тадбиқ қилиниши бу борада олиб борилаётган ишларни жадаллаштирмоқда. Хорижий ҳамкор университетлар билан янги лойиҳалар, илмий изланишларда профессор-ўқитувчилар малакаларини ошириш, институт ўқув базаси ва ахборот ресурс марказларини ривожлантиришга алоҳида эътибор берилмоқда.

Хорижий ҳамкор давлатлар билан илмий йўналишда ҳамкорлик қилиш бўйича бугунги кунда 20 га яқин, жумладан Германия, Швейцария, Финландия, Италия, Польша, Россия, Бирлашган Араб Амирликлари, Туркия, Япония, Индонезия, Малайзия, Қозоғистон, Озарбайжон, Тожикистон, Қирғизистон каби давлатларда педагогика соҳасида фаолият юритадиган олийгоҳлари билан меморандум ва шартномалар имзоланган. Уларга кўра биргаликда илмий изланишлар олиб борилиб, натижаларни илмий мақола сифатида чоп этиб келинмоқда. Жумладан Германия, Финландия, Япония, Австрия, Россия, Белоруссия, Польша давлатлари олимлари билан ҳамкорликда 15 та илмий тадқиқот мавзулари бўйича ҳамкорликда илмий изланишлар олиб борилмоқда.

1.6. Чирчиқ давлат педагогика университетида фан, таълим ва ишлаб чиқариш билан интеграцияси (натижаларни ишлаб чиқаришга жорий этиш ҳолати)

2024 йилда университет профессор-ўқитувчилари томонидан олиб борилаётган илмий-тадқиқот ишлари натижаларини амалиётга қўллаш юқори савияда ташкил этилган бўлиб, олинган илмий-тадқиқот натижалари асосида фан, таълим ва ишлаб чиқариш интеграцияси бўйича қуйидаги натижаларга эришилди. Жумладан 2024 йилда университет профессор-ўқитувчиларининг 118 (105) та илмий тадқиқот ишлари натижалари амалиётга жорий қилинган:

1. "Илмий ва методологик кимё" кафедраси профессор-ўқитувчилари к.ф.ф.д.(PhD) Н.М.Кутлимуратов ҳамда к.ф.ф.д.(PhD) М.С. Худайбергановлар ва "FNQIZ" МЧЖ томонидан Фарғона нефтни қайта ишлаш заводи XSJQ бўлими бошлиғи К.А. Қодиров, ишлаб чиқиш бўлими бошлиғи О.Ж. Худойназаров, лаборатория бошлиғи ўринбосари Д.Т. Акрамовлар билан биргаликда 2024 йил 21-24-октабр кунлари таклиф этилган поливинилхлорид асосида олинган таркибида азот ва олтингугурт тутган ПВХ-Н-С, ПВХ-А-Н-1, ПВХ-А-Н-2 ионитлари иштирокида оқова сувлар таркибидаги айрим оралик металл ионларини ва анион (хром ва марганес анион)ларни тозалашга оид тадқиқотлар олиб борилди. Олиб борилган илмий тадқиқот ишида янги турдаги ионитларнинг адсорбсион хусусияти юқорилигини инобатга олиб, оқова сувлар таркибидаги айрим оралик металл ионларини ва анион (хром ва марганес анион)ларни ажратиб олишда илмий жиҳатидан янгилиги исботланди ва амалиётга тадбиқ этилди. Ушбу синов тажриба асосида олинган натижалар мазкур амалий лойиҳани муваффақиятли яқунлашда хизмат қилади (2024-йил 19-декабрь №03/03-351 сонли маълумотнома).

2. "Ўзбекистон технологик металллар комбинати" АЖ Илмий технологик маркази "Минерал хомашёларни бойитиш ва тадқиқ этиш" лаборатория бошлиғи PhD. М.К. Рустамов, Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий Университети кимё факультети "Полимерлар кимёси" кафедраси профессорлари М.Г.Мухамедиев, Д.Ж.Бекчановлар раҳбарлигида ҳамда ЧДПУ Илмий ва методологик кимё кафедраси катта ўқитувчиси О.Х. Турсунмуратов томонидан вермикулит ва полиэтиленполиамин асосида синтез қилинган ионити асосида "Ўзбекистон технологик металллар комбинати" АЖ саноат чиқинди сувлари таркибидаги оғир металл ионларидан ҳисобланган Cu(II) ионларига нисбатан синтез қилинган ион алмашинадиган сорбентнинг селектив сорбцияси бўйича сорбент сифатида қўлланилди ҳамда самарадорлиги синовдан ўтказилди. Тадқиқот натижаларига кўра "ЎзТМК" АЖ оқова сувларида мавжуд бўлган Cu(II) ионларидан тозалаш учун вермикулит асосида олинган ион алмашинувчи материалдан фойдаланган ҳолда мини қурилма яратилди ҳамда синовдан ўтказилди. Шунингдек оқова сувлари таркибидаги Cu(II) ионлари 1,26% қолганлиги аниқланди. Юқоридаги қурилмани жорий қилиш молиявий ресурсларни тежашга олиб келади. Ушбу синов тажриба асосида олинган натижалар мазкур амалий лойиҳани муваффақиятли яқунлашда хизмат қилади (2024-йил 19-декабрь №03/03-351 сонли маълумотнома).

3. Картошка М - вирусининг республикамизда тарқалган изоляти "Фитопатоген ва бошқа микроорганизмлар ноёб илмий объекти

коллекцияси” генофондига топширилган (Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси 2024 йил 15 март 4/1255-314-сон маълумотномаси). Натижада фитопатоген микроорганизмлар штамлари коллекция генофондини бойитиш, вирус турлари хилма-хилликлари электрон базаси ахборот таҳлил тизимини шакллантириш имконини берган.

4. Тошкент вилояти картошка экин далаларидан кузатилган бир қатор картошка касаллик аломатларидан КМВ ПЗР усули ёрдамида таҳлил ўтказилиб, вируснинг “PVM-UZ-AY1” va “PVM-UZ-AY2” изоляти аниқланган ҳамда ушбу изолят халқаро Генбанкнинг NCBI базасига ID:PP235793.1 ва ID PQ243305 рақам билан жойлаштирилган. Натижада йўналишдаги илмий-тадқиқот ишларида фойдаланиш ва филогенетик шажарасини яратиш жараёнида фойдаланиш имконини берган (Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалиги вазирлиги 2024 йил 12 августдаги 05/06/-02-651-сонли маълумотномаси).

5. Картошка М-вирусининг NCBI маълумотлар базасидаги мавжуд изолятлар асосида муаллифлик универсал праймер дизайн қилиниб, реал вақтдаги ПЗР тест тўплами ишлаб чиқилган ва ушбу тест тўплами “Сабзавот, полиз экинлари ва картошкачилик илмий тадқиқот институтида” картошка коллекцияси уруғлик материалларини саралаш амалиётига жорий қилинган. Натижада картошка тугунаклари ва экин майдонларида вирус ташхислаш, унга қарши курашиш чорасини ишлаб чиқиш, вируссиз уруғлик картошка тугунаклари олишга ҳамда тугунак таркибидаги яширин ҳолда сақланаётган КМВни эрта диагностика қилиш имконини берган. Бу ўз навабатида вируссиз уруғлик тугунакларини олишга ҳамда вируснинг экин майдонларини кенг масштабда тарқалишининг олдини олишга эришилган (Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалиги вазирлиги 2024 йил 12 августдаги 05/06/-02-651-сонли маълумотномаси).

6. Олхўри чечаги вирусининг Ўзбекистонда тарқалган изоляти ЎЗР ФА Генетика ва ўсимликлар экспериментал биологияси институтидаги “Фитопатоген ва бошқа микроорганизмлар ноёб илмий объекти коллекцияси” генофондига топширилган (Ўзбекистон Республикаси Фанлар академиясининг 2024 йил 15 мартдаги 4/1255-610-сонли маълумотномаси). Натижада, коллекциядаги вируслар генофондини бойитиш электрон базаси ахборот-таҳлил тизимини шакллантириш имконини берган.

7. Олхўри ўсимлигидан ажратилган изолятларнинг лаборатория шароитида тоза препарати олинган, вирусга специфик бўлган юқори титрли зардоб тайёрланган ҳамда Тошкент вилояти Паркент ва Қибрай туманларидаги жами 10,4 гектар майдонда вирус диагностикасида жорий қилинган. (Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлигининг 2024 йил 08 октябрдаги 05/06-02-861-сонли маълумотномаси). Натижада, боғдорчиликка ихтисослашган фермер хўжаликларида олхўри чечаги вирусини эрта аниқлаш ва тарқалишини олдини олиш имконини берган.

8. Олхўри агробιοценозида тарқалган олхўри чечаги вирусининг Тошкент вилоятида тарқалган учта бир-биридан фарқланувчи изолятлари молекуляр генетик усуллар ёрдамида идентификация қилинди ва PPVUzb1,

PPVUzb2 da PPVUzb3 номи билан Халқаро Генбанк - NCBI га жойланди. (Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлигининг 2024 йил 8 октябрдаги 05/06-02-861-сонли маълумотномаси). Натижада вирусларнинг янги турларини тавсифлашда нуклеотидлар кетма-кетлиги асосида минтақаларо фойдаланиш имконини берган.

9. Ўзбекистоннинг турли минтақаларида қурғоқчиликка чидамликни баҳолашда оддий ловияни морфоҳўжалик, физиологик, биокимёвий кўрсаткичлари юқори бўлган навлари ва Ф2 дурагайларидан ажратиб олинган рекомбинант шаклларида фойдаланилган (Қурғоқчил минтақаларда қишлоқ хўжалиги тадқиқотлари халқаро маркази (IKARDA) нинг 2024 йил 9 сентябрдаги 1616-сон маълумотномаси). Натижада, оддий ловия навлари ва Ф2 дурагайларидан ажратиб олинган рекомбинант шаклларида ҳосилдор, эртапишар ва қурғоқчиликка чидамли намуналаридан келгусида селекцион мақсадларда қўллаш имконини берган.

10. Оддий ловиянинг хорижий, маҳаллий намуналари ва Ф1-Ф2 дурагайлари Лалмикор деҳқончилик илмий-тадқиқот институти коллекциясига тақдим этилган (Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлигининг 2024 йил 12 ноябрдаги 05/06-02-974-сон маълумотномаси). Натижада генофондни бойитиш, сақлаш ва улардан келгусида генетика, селекция соҳасида илмий-тадқиқот ишларини олиб бориш мақсадида физиологик ва биокимёвий хусусиятлари билан боғланган намуналарни бирламчи манбаа сифатида фойдаланиш ва электрон базаси ахборот-таҳлил тизимини шакллантириш бўйича фойдаланиш имконини берган.

11. *Phaseolus vulgaris* L. турига мансуб географик узоқ навларни чатиштириш асосида олинган ирсий жиҳатдан бойитилган Ф2 дурагайлари Жанубий деҳқончилик илмий тадқиқот институти коллекциясига тақдим этилган (Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлигининг 2024 йил 12 ноябрдаги 05/06-02-974-сон маълумотномаси). Натижада ушбу юқори кўрсаткичли Ф2 дурагай рекомбинант шакллари институтнинг генофондини бойитиш билан бир қаторда, Республикамиз “Қишлоқ хўжалиги, биотехнология, экология ва атроф муҳит муҳофазаси” устувор йўналишидаги илмий тадқиқотларда бошланғич ашё сифатида фойдаланишга эришилган.

12. Ўқувчиларнинг тиббий саводхонлигини доривор ўсимликлар ёрдамида шакллантиришнинг норматив-ҳуқуқий асослари ишлаб чиқилган ҳамда амалиётга жорий этиш мумкинлиги аниқланган ва “Фитобар юритиш”, “Фармакогнозия”, “Доривор ўсимликлар”га оид фанлари бўйича малака талаблари, ўқув дастурлари ва меъёрий хўжжатлар яратилган (Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлигининг 2024 йил 11 майдаги 05/05/2188-сон далолатномаси);

13. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 10 мартда қабул қилинган “Доривор ўсимликларни етиштириш ва қайта ишлаш, уларнинг уруғчилигини йўлга қўйишни ривожлантириш бўйича илмий тадқиқотлар қўламини кенгайтиришга оид чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-4670-сон қарорининг 15-16-бандларини шакллантиришда таклифлари амалий асос бўлиб хизмат қилди.

14. Доривор ўсимликларга оид фанларни ўқитишда ўқувчи-талабалар тиббий саломатлигини ривожлантиришнинг педагогик-психологик хусусиятлари илмий-назарий асосланган “Фитобар” номли ўқув услубий кўлланма яратилган ва ўқув жараёнига татбиқ этилган (Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги 2024 йил 27 апрелдаги 4/17-4/4-174-сонли маълумотномалари). Мазкур ўқитиш воситасини кўллаш натижасида талабаларнинг доривор ўсимликларни таниш, улардан фойдаланиш ва тиббий саводхонлиги шакллантиришнинг самарадорлик даражасини 11,2 фоизга ошиши таъминланган.

15. Ўзбекистон шаҳар ва шаҳарчаларининг уларда жойлашган иқтисодий ва ижтимоий-маданий объектлар таркиби, ҳудудий таъсир доираси ҳамда сиёсий-маъмурий аҳамиятини ҳисобга олган ҳолда ишлаб чиқилган функционал типологияси “Картография” илмий ишлаб чиқариш корхонаси томонидан 2023 йилда нашр этилган Ўзбекистон Республикаси вилоятлари ва Қорақалпоғистон Республикаси иқтисодий хариталарининг мазмунини тузишда фойдаланилган (Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳузуридаги Кадастр агентлигининг 2024 йил 30 январдаги 03/08-797-сон маълумотномаси). Натижада республика ҳудудлари иқтисодий хариталарининг шаҳар манзилгоҳларига оид мазмун-моҳиятини бойитишга имкон берган.

16. Ўзбекистон шаҳар манзилгоҳлари шаҳар ҳосил қилувчи функцияларининг таҳлили асосида илк бор аниқлаштирилган, республикадаги моношаҳарлар таркиби муаллиф томонидан ажратилган, уларнинг иқтисодий географик типларига оид хулосалари “Картография” илмий ишлаб чиқариш корхонаси томонидан 2023 йилда нашр этилган, Ўзбекистон Республикаси вилоятлари ва Қорақалпоғистон Республикаси иқтисодий хариталарининг мазмунини ишлаб чиқишда кўлланилган (Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳузуридаги Кадастр агентлигининг 2024 йил 30 январдаги 03/08-797-сон маълумотномаси). Натижада тор ихтисослашган шаҳарлар ва шаҳарчаларнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиш хусусиятларини географик хариталар ёрдамида ўрганиш имкони яратилган.

17. Диссертант томонидан шаҳар ҳосил қилувчи базавий ишлаб чиқариш объектлари (минерал хомашё конлари, саноат корхоналари, темир йўл станциялари ва бошқалар) фаолияти тўхтаган, бироқ демографик салоҳияти сақланиб, аҳоли учун фақат яшаш масканига айланган шаҳар манзилгоҳларини ифодалаш учун илк бор илмий муоммалага киритилган “Реликт шаҳар” атамаси Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 4 апрелдаги “2022–2026-йилларда Қорақалпоғистон Республикаси ҳудудларини комплекс ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш ва аҳоли турмуш даражасини янада яхшилашга доир кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 155-сон Қарори ижросини таъминлашда фойдаланилган (Қорақалпоғистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлигининг 2024 йил 5 февралдаги ПС/01-09/30а-сон маълумотномаси). Натижада шаҳар ҳосил қилувчи базаси деградацияга учраган, лекин аҳоли сони барқарор

сақланган шаҳар манзилгоҳларининг ижтимоий-иқтисодий вазиятини алоҳида равишда таҳлил қилиш ва баҳолашнинг зарурати асосланган.

18. Диссертацияда асосланган республика моношаҳарларини ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг муқобил йўллари белгилаб берадиган иқтисодий географик омиллар (шаҳар ва шаҳарчаларнинг иқтисодий географик ўрни, меҳнат ресурслари ва малакали ишчи кучи, табиий рекреация ресурслари, ишлаб чиқариш инфратузилмаси, маҳсулот ва хизматларга бўлган истеъмол талабининг ҳудудий хусусиятлари)га оид ҳулосалардан Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 31 августдаги “Қорақалпоғистон Республикасида тадбиркорлик, инновацион технологиялар ва инфратузилмаларни жадал суръатларда ривожлантириш орқали аҳоли фаровонлигини оширишнинг кўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-213-сон Фармони ижросини таъминлашда фойдаланилган (Қорақалпоғистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлигининг 2024 йил 5 февралдаги ПС/01-09/30а-сон маълумотномаси). Натижада Қорақалпоғистон Республикасидаги тор ихтисослашган шаҳар манзилгоҳларининг саноат ва тадбиркорлик салоҳиятини ривожлантириш имкониятлари аниқлаштирилган.

19. Тадқиқот ишида белгиланган Ўзбекистон моношаҳарларини барқарор ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг стратегик йўналишлари (кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш, аҳоли бандлиги даражасини ошириш ва тармоқ таркибини диверсификациялаш, ишлаб чиқариш инфратузилмасини модернизация қилиш, экологик вазиятни яхшилаш ва бошқалар) ҳамда моношаҳарларнинг тармоқ хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда ишлаб чиқилган тегишли ташкилий, маъмурий ва иқтисодий чора-тадбирлар мажмуаси Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 4 апрелдаги “2022–2026-йилларда Қорақалпоғистон Республикаси ҳудудларини комплекс ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш ва аҳоли турмуш даражасини янада яхшилашга доир кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 155-сон Қарори ижросини таъминлашда фойдаланилган (Қорақалпоғистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлигининг 2024 йил 5 февралдаги ПС/01-09/30а-сон маълумотномаси). Натижада Қорақалпоғистон Республикасидаги Қоратов, Жумуртов, Қирққиз сингари тор ихтисослашган саноат шаҳарчаларини ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш йўналишларини ишлаб чиқишга хизмат қилган.

20. Ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни юксалтириш, ёшларнинг ҳуқуқий тарбиясига салбий таъсир кўрсатувчи омилларга нисбатан ҳуқуқий иммунитетни шакллантириш ишларига фанлараро интегрatív ёндошиш ҳамда таълим самарадорлигига хизмат қилувчи замонавий педагогик ёндашув ва методлар асосида ижтимоий муносабатлар тез тараққий этаётган шароитда ҳуқуқшунос-педагог кадрларга бўлган компетенциявий талаблар таркибини такомиллаштириш борасидаги таҳлилий маълумотларидан ҳамда амалий таклиф ва ҳулосалардан Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси Фан, таълим, маданият ва спорт масалалари қўмитасининг 2023-2024 йиллар йиллик Дастурларида белгиланган

тадбирларини ташкил этишда фойдаланилган (Ўзбекистон Республикаси Олий мажлиси Қонунчилик палатасининг Фан, таълим, маданият ва спорт масалалари кўмитасининг 2024-йил 19 сентябрдаги 04/9-10-35-сонли маълумотномаси). Натижалар кўмита фаолияти доирасида олиб борилаётган ишлар самарадорлигини оширишга хизмат қилди. Айниқса, олиб борилган ислохотларда ёшларнинг ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданияти, юртимизда бу соҳада амалга оширилаётган ислохотлар мазмуни ва аҳамияти, ҳуқуқий тарбияга салбий таъсир кўрсатувчи омилларга нисбатан ҳуқуқий иммунитетни шакллантириш зарурати, таълим тизимида “Конституциявий ҳуқуқ” фани ўқитилишида самарадорликка хизмат қилувчи омиллар борасидаги билим ва дунёқарашларини кенгайтиришда алоҳида аҳамият касб этади.

21. Ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни юксалтириш, ҳуқуқий иммунитет тушунчасига берилган илмий таъриф, ёшларнинг ҳуқуқий маданиятини юксалтиришнинг заруратини илмий асослаб берилган маълумотлар ҳамда таълим самарадорлигига хизмат қилувчи замонавий педагогик ёндашув ва методлар асосида ижтимоий муносабалар тез тараққий этаётган бугунги шароитда ҳуқуқшунос-педагог кадрларга бўлган компетенциявий талаблар таркибини такомиллаштириш борасидаги таҳлилий маълумотларидан ҳамда амалий таклиф ва хулосалардан Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлигининг 2022-2024 йилларда белгиланган тадбирларни ташкил этишда фойдаланилган (Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлигининг 2024-йил 10-июль 2-13-21-3626-сон маълумотномаси). Хусусан, “Ёшлар ҳуқуқий маданиятини оширишда замонавий педагогик ёндашувларнинг самарадорлиги”, “Ҳуқуқий фанларни ўқитилишидаги узвийлик ва узлуксизликнинг мавжуд ҳолати” мақолаларидаги илгари сурилган хулосалардан Агентликнинг йиллик Дастуридаги “Ёш китобхон” танлови, “Шунқорлар” ҳарбий-спорт мусобақаси, “Бутунжаҳон ёшлар фестивалини” ташкил этиш ва ўтказишда, шунингдек волонтер ёшлар учун республика семинарларини ўтказишда фойдаланилган.

22. Ёшларда мустақил фикрлаш кўникмасини ривожлантириш, мамлакат тараққиёти йўлида соғлом дунёқарашни шакллантириш муҳим босқичлиги, ёшларда соғлом дунёқарашни шакллантириш заруратининг компаративистик таҳлили орқали соғлом дунёқараш тушунчасига берилган тариф, ахборот огими жадаллашган ва рақамлашган оламда педагог кадрларга бўлган компетенциявий талаблар таркибини такомиллаштириш масалалари борасидаги илмий янгилигидан 2023-2024-йилларда Ўзбекистон миллий телерадиокомпанияси “Ўзбекистон телерадиоканали”нинг “Бедорлик”, “Таълим ва тараққиёт”, “Миллат ва маънавият” эшиттиришлари сценарийларини ёзишда фойдаланилган (Ўзбекистон Миллий телерадиокомпаниясининг 2024 йил 14 ноябрдаги 26-36-921-сон маълумотномаси). Натижада диссертация ишида илгари сурилган янгиликлар Радиодастур тингловчиларнинг соғлом дунёқарашини ва унинг зарурати, мустақил фикрлаш кўникмаларини ривожлантириш, юртимизда бу соҳада

амалга оширилаётган ислохотлар мазмуни ва аҳамияти, мафкуравий таҳдидларга қарши туришда мафкуравий имунитет, бугунги кундаги турли манипуляцион дастурлар ва улардан ҳимояланиш механизмлари, фалсафий фанлар ўқитилишида таълим самарадорлигига хизмат қилувчи омиллар борасидаги билимлари шакллантиришида алоҳида аҳамият касб этади.

23. Sintez қilingan atsetilen spirtlari sanoat oqava suvlari tarkibida tuz qatlam hosil qiluvchi komponentlarga qarshi ingibitor sifatida “Ohangaronsement” AJda amaliyotga joriy qilingan (“Ohangaronsement” AJning 2021 yil 16 dekabrda ATS-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, sanoat korxonalarida qurilmalarida qatlam hosil bo’lishini kamaytirish imkonini bergan.

24. Sintez qilingan atsetilen spirtlari “Muborak gazni qayta ishlash zavodi” MChJda tabiiy gaz tarkibidagi oltingugurt va oltingugurtli birikmalarni ajratib oluvchi ingibitorlar sifatida amaliyotga joriy etilgan (“Muborak gazni qayta ishlash zavodi” MChJning 2023 yil 19 iyuldagi 454/G‘K-07-son ma’lumotnomasi). Natijada, tabiiy gaz tarkibida oltingugurt va oltingugurtli birikmalar miqdorini 58% ga kamaytirishga, arzon va sifatli tabiiy gaz xom-ashyosini tayyorlash imkonini bergan.

25. Sintez qilingan atsetilen spirtlari vinil efirlari “Sho‘rtan gaz kimyo majmuasi” MChJda iste’molga tayyorlangan tabiiy gaz tarkibidagi vodorod sulfid, merkaptanlar, sulfidlar hamda disulfidlarni ajratib oluvchi ingibitorlar sifatida amaliyotga joriy etilgan (“Sho‘rtan gaz kimyo majmuasi” MChJning 2023 yil 02 iyundagi 004/2149-son ma’lumotnomasi). Natijada, tabiiy gazdagi oltingugurtli birikmalarning 71% gacha bo‘lgan miqdori ajratib olingan, bu esa texnik va ekologik toza tabiiy gaz mahsulotlarini ishlab chiqarishga xizmat qilgan.

26. Jadid she’riyati, nasri va dramalarida xotin-qizlar obrazi ijodkor konsepsiyasini ifodalagani, ma’rifat va oriyat (Maryam), hayo va ibo (Kumush), qat’iyat va jasorat (Ra’no), sharqona andisha va xoksorlik (Zebi), mutelik va haqsizlik qurboni (Sharofatxon va Gavharoy) sifatida davr, muhit hamda o‘zbek ayoli tabiatiga xos milliy xususiyatlarni aks ettirgani, mustamlaka iskanjasida qolgan Turkiston ramzi sifatida estetik ideal darajasiga yuksalgani, Vatan va millat taraqqiysi timsoli o‘laroq tasvirlanganiga doir xulosalardan Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2017-2020-yillarda bajarilgan OT-F1-030 – “O‘zbek adabiyoti tarixi” ko‘p jidlik monografiyani (7 jild) chop etish” mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 10-maydagi 04/1-1224-son ma’lumotnomasi). Natijada uch adabiy tur – lirik, epik va dramatik asarlar misolida jadid adabiyotida xotin-qizlar obrazining genezisi va tadrijiy takomili, ayol obraziga yuklangan estetik vazifa, ijtimoiy-siyosiy muhit va bosh qahramonlar fojeiy qismati, erk va ozodlik g‘oyalarining badiiy ifodasiga doir tamoyillar ishlab chiqilishiga asos bo‘lgan.

27. Xotin-qizlar obrazining genezisi va o‘zbek mumtoz adabiyotidagi badiiy tadriji Qur’oni karimda zikr etilgan Maryam, Oysha, Bilqis va Zulayxo singari ayollardan “Qisasi Rabg‘uziy”dagi personajlargacha, Xorazmiy “Muhabbatnoma”sidan Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi obrazlargacha takomilga erishganiga oid ilmiy xulosalardan Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti

universitetida 2022-2023 yillarda bajarilgan “IL-52 tur-21091433” raqamli “O‘zbek milliy madaniyatiga xos atamalarga oid maqolalar bazasini yaratish” (Vikipediya elektron ensiklopediyasi mezonlari asosida)” nomli amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 10-maydagi 04/1-1223-son ma’lumotnomasi). Natijada Alisher Navoiy ijodidagi Shirin, Mehinbonu va Xadichabegim singari xotin-qizlar obrazini yaratishdagi ijodiy an’analar Bobur she’riyati, Sayyid Qosimiy “Ilohiynoma”si va jadid adabiyotida davom ettirilgani; jadid shoiru adiblar she’riy, nasriy va dramatik asarlaridagi xotin-qizlar obrazi qadimgi davr va Alisher Navoiy asarlaridan boshlab evolyusion jarayonni o‘tagani haqidagi ilmiy xulosalar elektron platforma materiallarining davr nuqtayi nazaridan xilma-xilligini ta’minlagan she’riyatda lirik, nasrda epik, sahna asarlarida esa dramatik tasvir vositasida ayol obrazi tasviri tadrijiy ravishda takomillasha borgani, milliy ruhiyatning realistik tasviriga erishilgani haqidagi ilmiy-nazariy xulosalardan Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2023 yillarda bajarilgan “PF-201912258 – “O‘zbek adabiyotining ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 10-maydagi 04/1-1225-son ma’lumotnomasi). Natijada o‘zbek va “Evropa ayoli” obrazlariga yuklangan estetik funktsiya ijodkor badiiy niyatini aks ettirib, estetik tafakkurni boyitganiga, xotin-qizlar obrazi tasvirida lingvopoetik nutqning mubolag‘a, metafora, qarg‘ish, kakofemizm va evfemizm kabi turlari san’atkorona qo‘llangani bilan bog‘liq fikrlar o‘zbek adabiyoti ko‘p tilli elektron platformasini yangi materiallar bilan boyitishga xizmat qilgan.

28. Jadid she’riyatida xotin-qizlar obrazi evolyusiyasi, ayol Vatan va Millat ramzi sifatida estetik ideal darajasiga yuksalgani, jadid nasrida xotin-qizlar obrazi ma’rifat va oriyat (Maryam), hayo va ibo (Kumush), qat’iyat va jasorat (Ra’no), sharqona andisha va xoksorlik (Zebi), mutelik va haqsizlik qurboni (Sharofat, Gavharoy) timsoli sifatida davr, muhit hamda o‘zbek ayoli tabiatiga xos milliy xususiyatlarni aks ettirgani, shuningdek, jadid dramalarida ayollar bosh obraz sifatida ijodkor konsepsiyasini ifodalaganiga doir ilmiy natijalardan “O‘zbekiston tarixi” telekanalining “Mavzu”, “Tarixiy savol”, “Javohir” va “Taqdimot” ko‘rsatuvlarida foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanalining 10.05.2024-yildagi 06-28-587-raqamli ma’lumotnomasi). Natijada ko‘rsatuvlar yangi ilmiy-nazariy ma’lumotlar bilan boyitilgan.

29. Sintez qilingan birikmalar asosida tayyorlangan biotsidlar “Muborak gazni qayta ishlash zavodi” MChJda amaliyotga joriy qilingan (“Muborak gazni qayta ishlash zavodi” MChJning 2023 yil 14 dekabrda №1046/GK-12-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, neft sanoati korxonalarida metall qurilmalari ekspluatatsion samaradorligini oshirish imkonini bergan;

30. 3(H)-xinazolin-4-on asosida sintez qilingan birikmalar VA-FA-F-6-009 raqamli “Tabiiy birikmalar va ularning sintetik hosilalarining sitotoksik, antibakterial, zamburug‘ga qarshi va antioksidant faolligini o‘rganish” mavzusidagi amaliy loyihada Bacillus subtilis, Staphylococcus aureus,

Pseudomonas aeruginosa, *Escherichia coli*, *Candida albicans* shtammlariga nisbatan antibakterial faolliklarini aniqlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2021 yil 09 sentyabrdagi №4/1255-2626-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, zaharliliği kam bo‘lgan antibakterial dori vositalarini olish imkonini bergan.

31. Sintez qilingan birikmalar “Sho‘rtan gaz kimyo majmuasi” MChJda iste’molga tayyorlangan tabiiy gaz tarkibidagi vodorod sulfid, merkaptanlar, sulfidlar hamda disulfidlarni ajratib oluvchi ingibitorlar sifatida amaliyotga joriy etilgan (“Sho‘rtan gaz kimyo majmuasi” MChJ ning 2023 yil 21 iyundagi №179/4017-son ma’lumotnomasi). Natijada, tabiiy gazdagi oltingugurtli birikmalarning 59-70% miqdori ajratib olingan, bu esa texnik va ekologik toza tabiiy gaz mahsulotlarini ishlab chiqarishga xizmat qilgan.

32. 3(H)-xinazolin-4-on hosilalarini nitrolash jarayonida hosil bo‘ladigan nitrolovchi aralashma qoldig‘ining kimyoviy tarkibi o‘rganilgan va uning asosida N, P, K mikroelementlari saqlagan murakkab tarkibli suyuq o‘g‘itlari texnologik masshtablarda ishlab chiqilgan hamda O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi tomonidan ekspertizadan o‘tkazilgan (29.07.2024 dagi 3820-216626 sonli ma’lumotnoma, Ds 310167618-01:2024) va texnologik yo‘riqnoma (29.07.2024 dagi 3820-216626 sonli ma’lumotnoma, TI 310167618-01:2024) tasdiqlangan. Olingan natijalar qishloq xo‘jaligining turli sohalarida stimulyator sifatida keng miqyosda foydalanish imkonini bergan.

33. O‘quvchilarni kasb-hunarga tayyorlashda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ehtiyojidan kelib chiqib yangi turdagi kasblarni bilan to‘ldirish, o‘qituvchilarning kasbiy qobiliyati, kasbiy mahorati va kasbiy kompetentligini sinf va sinfdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida rivojlantirish orqali o‘quvchilarning kasb-hunarga doir bilim va ko‘nikmalari takomillashtirish to‘g‘risidagi takliflar ta‘lim jarayoniga tatbiq etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2019 yil 21 avgustdagi 89-03-3130-son ma’lumotnomasi). Natijada amaliyotchi-o‘qituvchilarni tayyorlash, ularning malakasini oshirish bo‘yicha uslubiy ta‘minotning takomillashishiga erishilgan.

34. O‘quv jarayonini takomillashtirishga doir takliflar IOT-2013-1-19 raqamli «Respublika iqtisodiy tarmoqlari va ijtimoiy sohalarini etuk va kasbiy ko‘nikmaga ega kadrlar bilan ta‘minlanishida kasb-hunar kollejlarida amaliyotlarni tashkil etilishining ahamiyati» mavzusidagi amaliy loyihasi mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2019 yil 21 avgustdagi 89-03-3130-son ma’lumotnomasi). Natijada o‘quvchilarni kasb-hunarga tayyorlash jarayoni takomillashtirilgan.

35. O‘quvchilarni kasb-hunarga tayyorlash jarayoni samaradorligini oshirishga oid tavsiyalar “Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida o‘quv-ishlab chiqarish majmualarini tashkil etish va boshqarishga zamonaviy yondashuvlar” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligining 2018 yil 9 noyabrdagi 04-04/2-1831-son ma’lumotnomasi). Natijada, kasbga yo‘naltirilgan ta‘limning samaradorligini oshishi va uslubiy ta‘minotning takomillashishiga xizmat qilgan.

36. Shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy, akmeologik va evristik yondashuvlarni geografiya ta'limining rivojlanayotgan tabiatiga raqamli davrga mos pedagogik moslashuvchanlikni faol ta'lim strategiyalari yordamida singdirish orqali asoslangan bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik zarurati, zamonaviy pedagogik yondashuvlar vositasida aniqlashtirilgan bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning mezon va ko'rsatkichlari bo'yicha taklif va tavsiyalardan Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan PZ-20170929789 raqamli "O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonida ilg'or pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish" mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining 2023 yil 5 dekabrda 04/11-8846-son ma'lumotnomasi). Natijada, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni geografiya ta'limiga tatbiq etishning pedagogik asoslarini ishlab chiqishga xizmat qilgan.

37. Kasbiy kompetensiyani rivojlantirishning asosiy shartlarini geografiya ta'limiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar va pedagogik metodlarni amalga oshirish strategiyalariga reflektiv amaliyot, texnologiya integratsiyasi va qo'llab-quvvatlovchi innovatsion muhit orqali tizimli moslashtirish asosida aniqlashtirilgan bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari, geografiya ta'limida pedagogik yondashuvlarni qiyosiy taqqoslash orqali integratsiyalash algoritmi bosqichlarini formativ baholash ko'rsatkichlari vositasida tabaqalashtirilgan ta'lim strategiyalarini ta'lim faoliyatini loyihalash orqali shaxsga yo'naltirish asosida takomillashtirilgan bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasi borasidagi ilmiy xulosa va tavsiyalar "Sanoat, qishloq xo'jaligi va transport geografiyasi" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti kengashining 2023-yil 30-maydagi 10/3.4-sonli qaroriga bilan berilgan 2023/164U-12-sonli nashr guvohnomasi). Natijada, geografiya ta'limining zamonaviy pedagogik yondashuvlarga asoslangan metodik va didaktik ta'minotini takomillashtirishga xizmat qilgan.

38. Geografiya ta'limiga ilmiy modellashtirishning blum taksonomiyasi, 5E ta'lim modeli, proksimal rivojlanish zonasi kabi modellashtirish namunalarini zamonaviy pedagogik yondashuvlarga kognitiv rivojlanish nuqta nazaridan integratsiyalash asosida takomillashtirilgan bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish modeli, bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning amaliy-texnologik tizimiga oid takliflar "Agrogeografiya" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-sentyabrdagi 438-sonli buyrug'i bilan berilgan 438194-son nashr guvohnomasi). Natijada, geografiya ta'limining asosiy didaktik vositalari ilmiy modellashtirish usuli asosida boyitilgan.

39. Ta'lim jarayonida geografiya mashg'ulotlari va tadqiqotlarni real amaliy sharoitga ko'chirish natijasida talabalarning rivojlanish vektorini ta'lim

resurslarini tashkil etishning integral tizimlari vositasida rivojlantirish orqali asoslangan zamonaviy o'quv-amaliy laboratoriyalarni tashkil qilish texnologiyasi, zamonaviy o'quv-amaliy laboratoriyalarda mashg'ulotlarni tashkil qilishning samaradorlik mezonlari borasidagi taklif va tavsiyalardan T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filialida bajarilgan A1-XT-0-92997 raqamli "Yoshlarni umumiy insoniy, milliy va tarixiy qadriyotlar uyg'unligi asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning muammolari" mavzusidagi amaliy loyihasini bajarishda foydalanilgan (T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filialining 2023 yil 5 oktyabrdagi 491/1-son ma'lumotnomasi). Natijada, umumiy o'rta ta'lim maktablari geografiya fani o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirishga xizmat qilgan.

40. Qovushoq siqiluvchi suyuqlikni o'z ichiga olgan kompozit uch qatlamli silindrik qobiq (quvur) nuqtalarida tashqi impulsli yuk tasirida yuzaga keladigan normal kuchlanishning kritik qiymatlarini hisoblash "YaNGIOBOD BUNYO'DKOR QURILISH" MChJda loyihalashtirilgan quvurli uzatgichlarning ixtiyoriy kesimidagi nuqtalarida chidamlilik chegarasini aniqlashda amaliyotga joriy qilindi. Olingan natijalar (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligining 2023-yil 18-avgustdagi 08-06/8138-sonli guvohnomasi) xarajatlarni normaga nisbatan 7 – 8 % ga kamaytirish imkonini berga.

41. Harakatlanuvchi qisqa muddatli yuklarning ta'siri natijasida uch qatlamli silindrik qobiq nuqtalarida paydo bo'ladigan radial kuchlanishlarning eng yuqori qiymatlarini aniqlash usuli "QISHLOQQURILISHLOYIHA" MchJ bosh loyiha qidiruv institutida joriy qilinganda ruxsat etilgan yuklarning bir jinsli silindrik qobiqlar uchun ruxsat etilgan yuklardan past ekanligini aniqlashga imkon berdi. Loyihalash jarayonida ushbu omilni hisobga olish (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligining 2023-yil 18-avgustdagi 08-06/8138-sonli guvohnomasi) materiallar sarfini 9 % gacha tejash imkonini bergan.

42. "QISHLOQQURILISHLOYIHA" MchJ bosh loyiha qidiruv institutida qobiq materialining qatlamli kompozitlik xususiyatini hisobga olgan holda aniq hisob-kitobdan fqo'llanildi, bu zo'riqishlar va ko'cishlarni klassik nazariyaga ko'ra hisoblash real holatdan yuqori bo'lgan natijalar berishini aniqlashga imkon berdi. Ushbu faktni hisobga olish (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligining 2023 yil 18 avgustdagi 08-06/8138-sonli guvohnomasi) materiallar sarfi va ishlab chiqarish xarajatlarini 7 – 9 % gacha tejash imkonini bergan.

43. Kompozit uch qatlamli silindrik qobiqning ixtiyoriy kesimi nuqtalarining maksimal radial ko'chishini topish yo'li bilan konstruksiyning buzilishi mumkin bo'lgan nuqtalari va ularning qiymatlarini aniqlash "YaNGIOBOD BUNYO'DKOR QURILISH" MChJda amaliyotga joriy qilindi. Bunday nuqtalarni halqali kamarlar yordamida mustahkamlash O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligining 2023-

yil 18-avgustdagi 08-06/8138-sonli guvohnomasi) qobiqning yuk ko‘tarish qobiliyatini 7% gacha ko‘paytirish imkonini bergan.

44. Ko‘ndalang kesim bo‘yicha qatlamlilikni hisobga olgan holda, statik va dinamik yuklarning birgalikdagi ta’siri ostidagi silindrik uch qatlamli qobiqning kesimlarida dinamik deformatsiyani hisoblashlar “AZIZ PROEKT PLAN” MChJ da loyihalash ishlarida amaliyotga joriy qilindi. Hisob-kitoblar shuni ko‘rsatdiki, olingan natijalar engilroq va tejamkor materiallardan foydalanishga imkon beradi (O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligining 2023-yil 18-avgustdagi 08-06/8138-sonli guvohnomasi) va shunga mos ravishda konstruksiyaning og‘irligini 8% gacha kamaytirgan.

45. Talabalarda kasbiy fazilatlarni shakllantirishning konstruktiv va destruktiv, psixologik-pedagogik, evristik va uslubiy jihatlarini ularning shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy pedagogik rivojlanish traektoriyasiga zamonaviy ta’lim paradigmalariga muvofiq kasbiy moslashtirish asosida aniqlashtirilgan talabalarni kasbiy tayyorgarligi jarayonida akmeologik yondashuvni qo‘llashning metodik xususiyatlariga oid ilmiy-metodik tavsiyalar “Pedagogik kompetentlik” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 27 martdagi buyrug‘iga asosan berilgan 68-206-raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, talabalarni kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishga qo‘yilgan zamonaviy talablarga mos ravishda akmeologik yondashuv asosida talabalarni kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirish muammosini tadqiq qilish zarurligini nazariy asoslashga erishilgan.

46. Kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishning pedagogik shart-sharoitlarini kasbiy motivatsiya, kompetentlik va yo‘nalganlikni shakllantirishga ilmiy-ijodiy muhit va innovatsion faoliyat uyg‘unligini epistemologik va kognitiv tamoyillarga muvofiq ta’minlash orqali integratsiyalash asosida ochib berilgan tarix fanini o‘qitishning integrativ mazmuniga oid takliflardan “O‘zbekiston tarixi” telekanalining “Taqdimot” nomli ko‘rsatuv ssenariyasini shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi, “O‘zbekiston teleradiokanali” davlat muassasasining 2023 yil 31 maydagi 01-31-854-son ma’lumotnomasi). Natijada, akmeologik yondashuv asosida oliy ta’limda bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari takomillashtirilgan.

47. Tarix o‘qitish metodikasini akmetexnologiyalar vositasida rivojlantirishda fanning pragmatic, empiric va deterministic omillarini bo‘lajak tarix o‘qituvchisining kasbiy o‘sish bilan bog‘liq usullar tizimiga ta’lim resurslarini tashkil etishning integral tizimlari orqali muvofiqlashtirish asosida ishlab chiqilgan bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning didaktik modeli Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘quv jarayoniga tatbiq etilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023 yil 13 iyundagi 02-07-2273/04-raqamli dalolatnomasi). Natijada, oliy ta’lim muassasalarida akmeologik yondashuvni joriy etish texnologiyalari, o‘quv-bilish faoliyatini akmeologik kasbiy yo‘naltirish metod, vosita va usullari takomillashtirilgan.

48. Bo'lajak tarix o'qituvchilari pedagogik tayyorgarligi sifatini oshirishda ularning kasbiy rivojlanish vektorini tarix fanlarini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida o'qitishga vertikal yo'naltirish texnologiyasini takomillashtirish asosida ishlab chiqilgan talabaning akmeogrammasi va individual rivojlanish traektoriyasini akmetexnologik tamoyillar asosida rivojlantirishning amaliy mexanizmlariga oid tavsiyalar va tadqiqot ishi natijalari T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filialining AI-XT-0-92997 raqamli "Yoshlarni umuminsoniy, milliy va tarixiy qadriyatlar uyg'unligi asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning muammolari" nomli amaliy loyihasini bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filialining 2023 yil 10 apreldagi 174-raqamli ma'lumotnomasi). Natijada, oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak kadrlarni kasbiy faoliyatga tayyorgarligini akmeologik yondashuv asosida takomillashtirishga erishilgan.

49. Qadriyat g'oyalariga aksiologik yondashuvni qaror toptirish hamda uning kontent domenlarini ijtimoiy-falsafiy, ilmiy-pedagogik va tolerantlik aspektlarida asoslash orqali aniqlashtirilgan O'zbekistonda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi tushunchasining tarixiy shakllanish bosqichlari bo'yicha nazariy xulosa va amaliy tavsiyalar "Kurash turlari va uni o'qitish metodikasi" (Dzyudo) nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazining 2023-yil 15-maydagi 02/01-01-77-son ma'lumotnomasi). Natijada, kurash turlari va uni o'qitish metodikasi fanining didaktik va metodik ta'minoti milliy va umuminsoniy qadriyatlar elementlari hisobiga boyitilgan.

50. Shaxsiy-kasbiy o'z-o'zini rivojlantirishning pedagogik motivatsiyasi omillarini samaradorlik, yo'nalganlik, asoslilik tamoyillariga nisbatan kvalimetrik jihatdan moslashtirish asosida takomillashtirilgan kurash sport turi orqali talabalarga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish samaradorligini baholash mezonlariga doir taklif va tavsiyalar "Jismoniy tarbiya va sport" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazining 2023-yil 15-maydagi 02/01-01-77-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, Jismoniy tarbiya va sport fanining mazmun-mohiyati talabalarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirishga oid tushunchalar bilan takomillashtirilgan.

51. Qadriyatlar tafakkurini ularning samaradorlik darajasini ob'ektiv baholash strategiyasining pragmatik, empirik, plyuralistik va deterministik omillar vositasida rivojlantirish hamda ta'lim menejmenti va pedagogik hamkorlik nuqtai nazaridan pedagogik jarayonga tashkiliy-texnologik jihatdan singdirish asosida takomillashtirilgan kurash sport turi orqali talabalarga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish modeliga oid amaliy taklif va tavsiyalardan AI-XT-0-92997 "Yoshlarni umuminsoniy, milliy va tarixiy qadriyatlar uyg'unligi asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning muammolari" loyihasini bajarishda

foydalanilgan (O‘zbekiston pedagogika ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filialining 2023-yil 16-yanvardagi 19-son ma’lumotnomasi). Natijada, talabalarning qadriyatlar targ‘ibotiga doir ilg‘or pedagogik va innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, vatanparvarlik, insonparvarlik, shaxslararo munosabatlarga kirishish, bag‘rikenglik, hamjihatlik, millatlar, madaniyatlar, e’tiqodlar, urf-odatlar, dinlararo va mafkuralararo ijtimoiy munosabatlarni muvozanatda saqlab turishga oid bilimlari ortgan.

52. “Jismoniy madaniyat” ta’lim yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan “Kurash turlari va uni o‘qitish metodikasi” fani tuzilmasini talabalarga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ta’limning konstruktiv va destruktiv mexanizmlari vositasida singdirish va shaxs xususiyati (etuk, faol, etakchi, barkamol) integratsiyasini ta’minlashning kontent domenlarini pedagogikaning zamonaviy paradigmalariga muvofiq takomillashtirish zarurati bo‘yicha taklif va tavsiyalar bilan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining Jizzax viloyati teleradiokompaniyasi televideniesi orqali “Subxidam” dasturida “Kurash orqali talabalarga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish yo‘llari” mavzusi yuzasidan chiqish qilingan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi Jizzax viloyati teleradiokompaniyasining 2023-yil 06-apreldagi 14-11/276-son ma’lumotnomasi). Natijada, talabalarning sog‘lom immunitetini rivojlantirish, qadriyatlarni singdirilganlik darajasini belgilovchi mezonlar tatbiq etilgan va ularning samaradorlik darajasiga erishilgan.

53. SOS modeli uchun Gibbs o‘lchovlari mavjudligi haqidagi natijadan YoFA-Ftex-2018-78 raqamli “Amenabel bo‘lmagan graflarda dinamik va termodinamik sistemalar” mavzusidagi fundamental loyihada Keli daraxtida Pots-SOS modeli uchun davriy Gibbs o‘lchovlarini tadqiq qilishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutining 2023-yil 5-iyundagi 2/221-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijaning qo‘llanilishi ikkinchi tartibli Keli daraxtida Pots-SOS modeli uchun davriy Gibbs o‘lchovlarini mavjudligini isbotlash imkonini bergan.

54. Keli daraxtida raqobatlashuvchi o‘zaro ta’sirli SOS modeli uchun davriy asosiy holatlarning tavsifi haqidagi natijadan OT-F-4-03 “Uzlyuksiz hamda diskret vaqtli aniq dinamik sistemalar, qismaniy integral operatorlar spektrlari” nomli fundamental loyihada diskret vaqtli dinamik sistemalar asimptotik xossalarini va davriy traektoriyalarini o‘rganishda foydalanilgan (Qarshi davlat universiteti 2023-yil 6-iyundagi 04/2264-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu ilmiy natijaning qo‘llanilishi diskret vaqtli dinamik sistemalar asimptotik xossalarini isbotlash va davriy traektoriyalarini tavsiflash imkonini bergan.

55. Sovet davlatida muallifning asariga egalik huquqi asosan kommunistik mafkura g‘oyalarni himoya qilishga qartilganligi, milliy ma’naviy qadriyatlar, urf-odatlarni aks ettirgan mahalliy mualliflarni kitoblari qat’iy nazoratga olinganligi, “Markaz”ning O‘zbekistondagi mualliflarga nisbatan bir xilda munosabatda bo‘lmaganligi hamda O‘zbekistonda sovet turmush tarzini targ‘ib etgan mashhur ijodkorlarga ekspertizasiz mualliflik huquqi tayinlanganligi, ularni asarlari muntazam ravishda nashr etilib, kitoblari ommalashgan taqdirda boshqa mualliflarga nisbatan ikki barobar miqdorida mehnat haqi

berilganligi dalillanganligiga oid ilmiy xulosalar O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston tarixi” telekanalining ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy mavzusidagi “Taqdimot” ko‘rsatuvining ssenariysini tuzish va tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston tarixi” teleradiokanali davlat unitar korxonasining 2022-yil 18-oktyabrdagi 02-31-1755-son ma’lumotnomasi). Natijada, mamlakatimizda mualliflik huquqini shakllanishi, me’yoriy–huquqiy asoslarning yaratilishi shuningdek, mualliflik huquqining himoya qilinishi bilan bog‘liq muammoli holatlar xususiyatlari, salbiy oqibatlari bo‘yicha mavjud g‘oyalar, respublikamizda mualliflar huquqlarini himoya qilish hamda ushbu huquqlarni hurmat qilish g‘oyasini keng jamoatchilikka etkazishga xizmat qilgan.

56. O‘zbekiston SSR adabiyot va nashriyot bosh boshqarmasi tomonidan Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Cho‘lpon, Usmon Nosirov, Yunusov Mashriq (Elbek), Mahmud Hodiev kabi mualliflarning asarlarida milliy o‘zlik, mahalliy millat manfaatlari va qadriyatlari targ‘ib qilganligi sababli ommalashtirish taqiqlanganligi hamda O‘zbekistonda “mualliflik huquqi”, “intellektual mulk”, “bosmaxona”, “noshir” kabi mavjud atamalarning huquqiy maqomi, mualliflar huquqini himoya qilish amaliyotining joriy etilishi, mualliflarning kasb darajasi bo‘yicha mutaxassis sifatida tayyorlashda oliy va o‘rta ta’limda sovet davrida kam e’tibor berilganligi dalillanganligiga oid amaliy taklif va tavsiyalardan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tomonidan foydalanilgan (Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining 2022 yil 29 dekabrdagi 02-22/593-son ma’lumotnomasi). Olingan natijalar Ma’naviyat va ma’rifat markazining ish samaradorligini oshirishda shuningdek, san’at va madaniyat, ilm-fan sohalarida ma’naviy-axloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatning yuksaltirish, inson huquqlarini hurmat qilish jumladan, mualliflik huquqlarini muhofazasi bilan bog‘liq ayrim muammoli holatlarni jamoatchilikka etkazilishiga xizmat qilgan..

57. Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirish muammosining psixologik-pedagogik xususiyatlari ta’lim resurslarini tashkil etishning integral tizimlarini madaniyatlararo kompetensiyani o‘rganish aylanma doirasi hamda madaniyat assimilyatori treningi vositasida lingvistik jihatdan asoslashga oid taklif va tavsiyalardan Termiz davlat universitetida Evropa Ittifoqining ERASMUS+ dasturi doirasida 2021-2022 yillar davomida amalga oshirilgan 574099-EPP-1-2016-1-IT-EPPKA2-CBHE-SP raqamli “Oliy ta’lim sohasida potensialni rivojlantirish yo‘nalishidagi PAWER- hududlararo mobillikni yo‘lga qo‘yish va bu borada dolzarblik, sifat hamda tenglikni ta’minlash” mavzusidagi ilmiy-amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (Termiz davlat universitetining 2024 yil 22-yanvardagi 02/12-208-son ma’lumotnomasi). Natijada, talabalarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishda ta’lim resurslarini tashkil etishning integral tizimlari takomillashtirilgan.

58. Pedagogik jarayon algoritmini talabalarning kognitiv, affektiv va pragmatik-kommunikativ subkompetensiyalarini epistemiologik va informatsion til funksiyalari kesimida madaniyatlararo tafovutlarni integratsiyalashga muvofiq moslash asosida takomillashtirilgan bo‘lajak rus tili o‘qituvchilarining

madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishning funksional modeli bo'yicha takliflardan T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika Fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filiali dissertatsiyas natijalaridan institutda 2012-2014 yillarda bajarilgan A1-XT-0-92997 raqamli "Yoshlarni umuminsoniy, milliy va tarixiy qadriyatlar uyg'unligi asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning muammolari" mavzusidagi amaliy fundamental loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika Fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filialining 2023 yil 16-oktyabrdagi 504-son ma'lumotnomasi). Natijada, talabalarning pragmatik-kommunikativ subkompetensiyalarini epistemiologik va informatsion til funksiyalari kesimida madaniyatlararo tafovutlarni integratsiyalashga erishilgan.

59. Madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish jarayoniga tizimli, yaxlit, kontekstual, kompetensiyaviy va shaxsiy faoliyat yondashuvlarini ta'lim amaliyotiga tatbiq etishning amaliy mexanizmlarini vitagen ta'limga qo'yilayotgan ergonomik talablarga muvofiq tizimli yo'lga qo'yish asosida takomillashtirilgan madaniyatlararo muloqotni o'qitishning metodik-didaktik tizimi bo'yicha tavsiyalardan O'zbekiston Milliy teleradikompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanalida "Madaniy-ma'rifiy va badiiy eshitirishlar" muharririyati tomonidan tayyorlangan "Ta'lim va taraqqiyot", "Bolalar uchun" radioeshittirishlari senariysini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradikompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanalining 2024 yil 26-yanvardagi 04-36.117-son ma'lumotnomasi). Natijada, kompetensiyaviy va shaxsiy faoliyat yondashuvlarini ta'lim amaliyotiga tatbiq etishning amaliy mexanizmlari keng jamoatchilikka tanishtirilgan.

60. O'zbekiston shahar va shaharchalarining ularda joylashgan iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy obektlar tarkibi, hududiy ta'sir doirasi hamda siyosiy-ma'muriy ahamiyatini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan funksional tipologiyasi "Kartografiya" ilmiy ishlab chiqarish korxonasi tomonidan 2023-yilda nashr etilgan O'zbekiston Respublikasi viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi iqtisodiy xaritalarining mazmunini tuzishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2024 yil 30 yanvardagi 03/08-797-son ma'lumotnomasi). Natijada, respublika hududlari iqtisodiy xaritalarining shahar manzilgohlariga oid mazmun-mohiyatini boyitishga imkon bergan.

61. O'zbekiston shahar manzilgohlari shahar hosil qiluvchi funksiyalarining tahlili asosida ilk bor aniqlashtirilgan respublikadagi monoshaharlar tarkibi, muallif tomonidan ajratilgan ularning iqtisodiy geografik tiplariga oid xulosalari "Kartografiya" ilmiy ishlab chiqarish korxonasi tomonidan 2023 yilda nashr etilgan O'zbekiston Respublikasi viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi iqtisodiy xaritalarining mazmunini ishlab chiqishda qo'llanilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2024 yil 30 yanvardagi 03/08-797-son ma'lumotnomasi). Natijada, tor ixtisoslashgan shaharlar va shaharchalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlarini geografik xaritalar yordamida o'rganish imkoni yaratilgan.

62. Shahar hosil qiluvchi bazaviy ishlab chiqarish obektlari (mineral xomashyo konlari, sanoat korxonalarini, temir yo‘l stansiyalari va boshqalar) faoliyati to‘xtagan, biroq demografik salohiyati saqlanib, aholi uchun faqat yashash maskaniga aylangan shahar manzilgohlarini ifodalash uchun ilk bor ilmiy muommalarga kiritilgan “relikt shahar” atamasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 4 apreldagi “2022–2026-yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 155-son Qarori ijrosini ta‘minlashda foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024 yil 5 fevraldagi PC/01-09/30a-son ma‘lumotnomasi). Natijada, shahar hosil qiluvchi bazasi degradatsiyaga uchragan, lekin aholi soni barqaror saqlangan shahar manzilgohlarining ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatini alohida ravishda tahlil qilish va baholashning zaruratini asoslash imkonini bergan.

63. Respublika monoshaharlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muqobil yo‘llarini belgilab beradigan iqtisodiy geografik omillar (shahar va shaharchalarning iqtisodiy geografik o‘rni, mehnat resurslari va malakali ishchi kuchi, tabiiy rekreatsiya resurslari, ishlab chiqarish infratuzilmasi, mahsulot va xizmatlarga bo‘lgan iste‘mol talabining hududiy xususiyatlari)ga oid xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 31 avgustdagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasida tadbirkorlik, innovatsion texnologiyalar va infratuzilmalarni jadal sur‘atlarda rivojlantirish orqali aholi farovonligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-213-son Farmoni ijrosini ta‘minlashda foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024 yil 5 fevraldagi PC/01-09/30a-son ma‘lumotnomasi). Natijada, Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi tor ixtisoslashgan shahar manzilgohlarining sanoat va tadbirkorlik salohiyatini rivojlantirish imkoniyatlari aniqlashtirilgan.

64. Belgilangan O‘zbekiston monoshaharlarini barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari (kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, aholi bandligi darajasini oshirish va tarmoq tarkibini diversifikatsiyalash, ishlab chiqarish infratuzilmasini modernizatsiya qilish, ekologik vaziyatni yaxshilash va boshqalar) hamda monoshaharlarning tarmoq xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan tegishli tashkiliy, ma‘muriy va iqtisodiy chora-tadbirlar majmuasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 4 apreldagi “2022–2026-yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 155-son Qarori ijrosini ta‘minlashda foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024 yil 5 fevraldagi PC/01-09/30a-son ma‘lumotnomasi). Natijada, Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi Qorator, Jumurtov, Qirg‘iz singari tor ixtisoslashgan sanoat shaharchalarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yo‘nalishlarini ishlab chiqishga xizmat qilgan.

65. Kartoshka X virusi diagnostikasi uchun IFA to'plamini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish mavzusi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida: mamlakatimizda tarqalgan KXV-O izolyati aniqlanib, uning pasporti yaratildi va O'zR FA Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi institutida mavjud bo'lgan "Fitopatogen va boshqa mikroorganizmlar noyob ilmiy obekti kolleksiyasi" genofondiga topshirilgan (O'zR FA ning 2023 yil 26 may 4/1255-1137-sonli ma'lumotnomasi) hamda ushbu yo'nalishda olib boriladigan ilmiy-tadqiqotlar uchun foydalanish imkoniyati yaratildi; KXV uchun ishlab chiqilgan IFA usuli yordamida "Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy tadqiqot instituti" kartoshka kolleksiyasida mavjud nav va namunalar tuganaklari kartoshka X virusiga tekshirildi hamda ekin maydonida virus epifitotiysining oldi olindi hamda virussiz kartoshka ekuv materiallarini olishga erishildi (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi 2023 -yil 5-iyundagi 05/05/2718-son-sonli ma'lumotnomasi).

66. Bo'lajak informatika o'qituvchilarining dasturlashtirish kompetensiyasini rivojlantirish jarayonlarini kasbiy tayyorgarlikni ta'minlashga yo'naltirilgan tizimli, sinergetik, shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatli yondashuvlarning kompetentli ta'lim modeli bilan metodik integrallashuv darajasi produktivligi operativ va didaktogenlik ko'rsatkichlari dinamikasini bevosita hisobga olish asosida aniqlashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan "Dasturlash tillari" nomli o'quv qo'llanmani yaratishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovasiyalar vazirligining 2023-yil 17-iyuldagi 314-son ma'lumotnomasi). Natijada, informatika o'qituvchilarining kasbiy-metodik kompetensiyalarini rivojlantirish mazmuni takomillashtirilgan.

67. Bo'lajak informatika o'qituvchilarining dasturlashtirish kompetensiyasini rivojlantirishning monitoring tizimini shaxsiy, kognitiv, kommunikativ, reguliyativ universal o'quv faoliyatini baholashning refleksiya asoslangan QR-kod texnologiyasidan differensial foydalanishning metodik imkoniyatlarini kengaytirish asosida takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Milliy universitetida 2018-2020-yillarda bajarilgan PZ-2017093020 raqamli "Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va prognozlashtirishning uslubiy asoslarini ishlab chiqish va kompleks dasturini yaratish" amaliy loyihasi doirasida foydalanilgan (O'zbekiston Milliy universitetining 2023-yil 8-maydagi 04/11-2796-son ma'lumotnomasi). Natijada, dasturlash tillarini o'qitishning elektron tizimini takomillashtirishga xizmat qilgan.

68. Bo'lajak informatika o'qituvchilarining dasturlashtirish kompetensiyasini rivojlantirishning muvofiqlashtiruvchi, sinergik, korporativ, prognostik, birlashtiruvchi, qayta tashkil etish kabi funksiyalarini qulaylik, moslashuvchanlik, madaniy muvofiqlik, hamkorlik tamoyillarining klasterli yondashuv bilan qayta aloqasi intensiv barqarorligiga ta'sir ko'rsatuvchi ta'limiy xakatonni pedagogik loyihalash optimalligini ta'minlash asosida aniqlashtirish, bo'lajak informatika o'qituvchilarining dasturlashtirish kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik modelini "Dasturlash tillari" modulini o'qitishning metodik imkoniyatlarini pre-postrekvizit kurslar bilan vertikal va gorizontal

yoʻnalishlarda kengaytirib borish mantiqiga ustuvorlik berish asosida takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan Oʻzbekiston Milliy teleradiokompaniyasi Oʻzbekiston teleradiokanalida efirga uzatilgan “Taʼlim va taraqqiyot”, “Bolalar va biz”, “Oʻzbekiston yoshlari” nomli dasturlar ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Oʻzbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2023-yil 26-apreldagi 04/36-638-son maʼlumotnomasi). Natijada, talabalarning dasturlashtirish kompetensiyasini rivojlantirishda predmetli-didaktik shart-sharoitlarni takomillashtirishga xizmat qilgan.

69. Oʻquvchilarning axloqiy tarbiya savodxonligiga taʼsir etuvchi pedagogik, psixologik omillarning deviant xulq-atvor psixologiyasiga ijobiy taʼsir barqarorligini ijtimoiy-pedagogik aspektda qiyosiy-tipologik tahlil natijalariga koʻra taʼminlash orqali asoslangan umumtaʼlim maktab oʻquvchilari axloqiy tarbiyasini profilaktika qilishning pedagogik zaruratiga doir yondashuvlar (diagnostika, korreksiya, profilaktika, rehabilitatsiya) boʻyicha taklif va tavsiyalar Fargʻona, Namangan, Buxoro, Surxondaryo, Jizzax viloyatlaridagi umumiy oʻrta taʼlim maktablarida taʼlim amaliyotiga joriy qilingan (Oʻzbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi huzuridagi Respublika taʼlim markazining 2023 yil 12 sentyabrdagi 01/11-01/11-772-son maʼlumotnomasi). Natijada, umumtaʼlim maktab oʻquvchilari axloqini pedagogic profilaktika qilishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qilgan.

70. Maktab, davlat organlari va ijtimoiy institutlar hamkorlik tizimiga uzlyuksiz maʼnaviy tarbiya konsepsiyasini tatbiq etishning milliy mentalitetga xos ijtimoiy omillarni hisobga olish va tarbiyaviy ishlarni modernizatsiya qilishning uzlyuksiz va universal didaktik tizimini ishlab chiqish asosida takomillashtirilgan umumtaʼlim maktab oʻquvchilari orasida axloqiy tarbiya profilaktikasining pedagogik mexanizmlari va texnologik asoslari borasidagi xulosa va tavsiyalar Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan PZ-P1-005 raqamli “Xizmat koʻrsatish obektlari milliy nomlari interaktiv elektron platformasini yaratish” mavzusidagi loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetining 2023 yil 18 apreldagi 352-son maʼlumotnomasi). Natijada, umumtaʼlim maktab oʻquvchilari orasida tarbiyaviy ishlar profilaktikasining pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qilgan.

71. Qayta aloqa mexanizmini taʼminlashga imkon beruvchi diagnostik va korreksion pedagogik texnologiyalarni hamda metodologik, tashkiliy, didaktik va natijaviy model komponentlarining izchilligini didaktik algoritmgaga mutanosib tarzda qoʻllash asosida ishlab chiqilgan umumtaʼlim maktab oʻquvchilari axloqiy tarbiyasini profilaktika qilishning pedagogik modeli, oʻquvchilarning individual xususiyatlarini faollashtiruvchi oʻyin, muammoli taʼlim va hamkorlik texnologiyalarini didaktik prinsiplarga muvofiq qoʻllanilishini taʼminlovchi interfaol munosabatlarni barqarorlashtirish hamda ulardagi taʼlimiy motivatsiyaga taʼsir qiluvchi omillarni ularning yosh xususiyatlariga pedagogik-psixologik jihatdan motivatsion-diaagnostik moslashtirish asosida takomillashtirilgan umumtaʼlim maktablarida tarbiyaviy ishlar metodikasi borasidagi xulosa va tavsiyalar Oʻzbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Oʻzbekiston

teleradiokanali”ning “Millat va ma’naviyat”, “Bolalar uchun”, “Ta’lim va taraqqiyot eshittirishlari, “Assalom O‘zbekiston”, “Ko‘ngil obodligi” ko‘rsatuvlarining senariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston teleradiokanali” davlat muassasasining 2023 yil 28 iyuldagi 02-13-1136-son ma’lumotnomasi). Natijada, umumta’lim maktab o‘quvchilari orasida axloqsizlikni oldini olishning pedagogik texnologiyasi va didaktik ta’minotini ommalashtirishga xizmat qilgan.

72. O‘quvchilarning xorijiy tilni o‘zlashtirish darajasining ularda shakllangan madaniy kompetentlikka hamda madaniyatlararo ta’limning audiolingval va audiovizual metodlariga aloqadorligini loyihalash texnologiyasi talablariga muvofiq modellashtirish asosida aniqlashtirilgan xorijiy til ta’limida «madaniyatlararo muloqot» tushunchasining pedagogik mazmuniga doir takliflardan Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida 2018-2020 yillarda bajarilgan PZ-20170929789 sonli “O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalarining o‘quv jarayonida ilg‘or pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish” nomli amaliy loyiha doirasida belgilangan vazifalarni bajarishda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy universitetining 2022-yil 28-iyuldagi 04/11-4375-son ma’lumotnomasi). Natijada, pedagogik ta’lim innovatsion klasteri asosida ingliz tili o‘qituvchilarining madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi bo‘yicha kasbiy mahoratini oshirish” nomli dastur loyihasi ishlab chiqildi.

73. Xorijiy til fanlarini o‘qitishning didaktik imkoniyatlari hamda madaniyatlararo muloqotni til unsurlarini qiyosiy o‘rganish orqali rivojlantirish metodikasini o‘quvchilarning individual ta’lim traektoriyasiga muloqot texnologiyasini oshirish nuqtai nazaridan intensiv moslashtirish asosida takomillashtirilgan ingliz tili darslarida o‘quvchilarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirish mexanizmlari bo‘yicha taklif va tavsiyalardan Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan A-197 raqamli “Ingliz va nemis tillarini o‘rganish bo‘yicha o‘quv-uslubiy modullardan foydalanish va ularni takomillashtirishning nazariy va amaliy asoslari” nomli amaliy loyiha doirasida belgilangan vazifalarni bajarishda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2021-yil 8-iyuldagi 26.01-114-son ma’lumotnomasi). Natijada ingliz tilini o‘qitishda ta’lim turlari hamkorligi kuchaytirilgan, o‘quvchilarning madaniy kompetentligini yaxshilashga qaratilgan metodlar asosida umumta’lim sifat samaradorligini oshirishga erishilgan.

74. Madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishda kognitiv faoliyatning tanishuv-bilish, tushunish-qo‘llash va refleksiya-baholashga doir algoritmik bosqichlarining maqsaddan natijaga kelish dinamikasini mazmun va pedagogik jarayon komponentlari orqali muvofiqlik va integrativlik tamoyillari orqali loyihalash asosida takomillashtirilgan o‘quvchilarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirish modelini amaliyotga tatbiq etishga doir ma’lumotlardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanali DM “Ma’naviy-ma’rifiy va badiiy ehsitirishlar” muharririyati tomonidan tayyorlangan “Ta’lim va taraqqiyot” radio eshittirishining 2022-yil 14-

avgust kunidagi sonida foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2022-yil 19-sentyabrdagi 04-36-1518-son ma’lumotnomasi). Natijada, ingliz tili darslarida o‘quvchilarning ko‘p madaniyatli kontekstda samarali muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishning metodikasi bo‘yicha takliflar keng jamoatchlik e’tiboriga havola etilgan.

75. Vitagen ta’lim integratsiyasini ta’minlashning interfaol va imitatsion o‘qitish shakllarini ergonomik talablar va o‘quvchining rivojlanish vektoriga mos rivojlantiruvchi innovatsion metodikalarni ishlab chiqish orqali takomillashtirilgan o‘quvchilarda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirish texnologiyasining didaktik ta’minotiga doir takliflar “Chet tilini o‘qitishda madaniyatlararo muloqotni o‘rgatish” fanidan ishlab chiqilgan “Developing Intercultural Communication in Teaching English” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 17-iyuldagi 314-sonli buyrug‘i, 434608482533158545-raqamli nashr guvohnomasi). Natijada, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirish imkoniyati kengaytirilgan, madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirish modeli ishlab chiqilgan.

76. Helianthus annuus turiga mansub xorijiy kolleksiya namunalari Xitoy Fanlar akademiyasining Shinjon ekologiya va geografiya institutida NSFC-Xinjiang Key Project (№. U1903206) loyihasida kungaboqar fiziologik va biokimyoviy xususiyatlarini baholashda qo‘llanilgan (Xitoy Fanlar akademiyasi Shinjon ekologiya va geografiya instituti ma’lumotnomasi). Natijada, xorijiy kungaboqar kolleksiya namunalari fiziologik, biokimyoviy va morfoxo‘jalik ko‘rsatkichlarini aniqlash imkonini bergan.

77. Kungaboqarni xorijiy namunalari Lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti kolleksiyasiga taqdim etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2023 yil 19 oktyabrdagi 02/21-05/5321-son ma’lumotnomasi). Natijada, kolleksiya fondini boyitish, seleksiya, genetika ilmiy tadqiqot ishlarida hosildorlik, fiziologik va biokimyoviy xususiyatlari bilan bog‘langan holda birlamchi materiallar tanlab olish hamda elektron bazasi axborot-tahlil tizimini shakllantirish imkonini bergan.

78. Helianthus annuus turiga mansub xorijiy kolleksiya namunalari Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti kolleksiyasiga taqdim etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2023 yil 19 oktyabrdagi 02/21-05/5321-son ma’lumotnomasi). Natijada, kungaboqarni yuqori ko‘rsatkichli xorijiy kolleksiya namunalari institut genofondini boyitish bilan bir qatorda, “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishidagi fundamental va amaliy loyihalarida boshlang‘ich ashyo sifatida jalb etish imkonini bergan.

79. O‘zbekistonning turli mintaqalarida kungaboqarni oqsil va yog‘ miqdori yuqori bo‘lgan Stepnyak (9848; Rossiya), Chakinskiy 321 (9853; Rossiya) namunalari kasallantiruvchi patogen zamburug‘ning (*Fusarium solani*) tarqalishining populyasion xaritasini tuzish, genetik o‘zgaruvchanligini tahlil qilish, kungaboqar ko‘chatzorlarda *Fusarium solani* kasalligiga chidamliligini baholashda foydalanilgan (Qurg‘oqchil mintaqalarda qishloq xo‘jaligi tadqiqotlari

xalqaro markazi (IKARDA) ning 2023 yil 22 noyabrdagi 1448-son ma'lumotnomasi). Natijada, kungaboqar namunalarda Fusarium solani kasalligini erta diagnoz qilish usulini ishlab chiqish va ushbu kasalliklarga qarshi kurash chora-tadbirlarini takomillashtirish hamda zamburug' kasalligiga chidamli navlarni yaratishda seleksion maqsadlarda qo'llash imkonini bergan.

80. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda uy-joylarni xususiylashtirish jarayonlarida turarjoy mulkiga egalik huquqini beruvchi hamda uni himoya qiluvchi bir qancha me'yoriy hujjatlarning qabul qilinishi respublikada xususiy uy-joylar fondining ortishi hamda aholi ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilganligiga oid natijalardan O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirining 2024-yil 12-martdagi "Ko'p kvartirali uylarda umumiy mol-mulkni saqlash, undan foydalanish va uni ta'mirlash hamda ko'p kvartirali uyga tutash er uchastkasini obodonlashtirish uchun majburiy badallar yoki to'lovlarning eng kam miqdorini aniqlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 01/2-4-son buyrug'ini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2024-yil 13-iyundagi 07-06/6084-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning joriy etilishi zamonaviy turarjoy qurilishi bo'yicha huquqiy-me'yoriy hujjatlarni takomillashtirishga xizmat qilgan.

81. Respublikada uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida ko'p xonadonli uylarni boshqarishda ma'muriy-buyruqbozlik uslubiga asoslanganligi, saqlash hamda ta'mirlash, byudjet mablag'lari hisobidan boqimanda kun ko'rishga o'rganib qolgan iqtisodiy samarasiz tizimga bozor mexanizmi tamoyillarining joriy qilinishi xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarining vujudga kelishiga zamin yaratganligiga doir natijalardan O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirining 2024-yil 12-martdagi "Ko'p kvartirali uylarda umumiy mol-mulkni saqlash, undan foydalanish va uni ta'mirlash hamda ko'p kvartirali uyga tutash er uchastkasini obodonlashtirish uchun majburiy badallar yoki to'lovlarning eng kam miqdorini aniqlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 01/2-4-son buyrug'ini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2024-yil 13-iyundagi 07-06/6084-son ma'lumotnomasi). Natijalarning qo'llanilishi ko'p kvartirali uylarni boshqarish tizimiga yangicha yondashuvlarni joriy qilishga xizmat qilgan.

82. Hududlarda uy-joylar qurilishi bo'yicha turarjoylar tarkibining alohida tipologik xususiyatlari, yozgi xonalarni ishlatish davomiyligi, kondisionerlashtirish tizimini o'rnatish ketma-ketligi, changli shamollarning tartibi kabi yo'nalishlarda olib borilgan tadqiqotlar shaharsozlik echimlarini ijobiy asosda echishga xizmat qilishi bilan bog'liq natijalardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-maydagi "O'zbekiston Respublikasida monumental yodgorliklarni o'rnatish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 312-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida monumental yodgorliklarni o'rnatish va olib tashlash (ko'chirish) tartibi to'g'risida"gi Nizomda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining 2024-yil 28-avgustdagi 03-3201-son ma'lumotnomasi). Natijalarning

qo'llanilishi turarjoylarni madaniy meros obektlari sifatida saralash bo'yicha mexnazimlarni takomillashtirishga xizmat qilgan.

83. O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida kam ta'minlangan oilalarni uy-joy bilan ta'minlash bo'yicha qurilish ishlarida hududlarning tabiiy iqlim sharoiti va reliefi, ijtimoiy, demografik xususiyatlarini inobatga olib, zamonaviy qurilish materiallari va texnologiyalarini qo'llagan holda uylarning qurilishi aholi massivlaridagi ijtimoiy, madaniy va maishiy obektlarga bo'lgan ehtiyojlarini ham qondirishga imkon berganligi bilan bog'liq natijalardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-maydagi «O'zbekiston Respublikasida monumental yodgorliklarni o'rnatish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 312-son qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasida monumental yodgorliklarni o'rnatish va olib tashlash (ko'chirish) tartibi to'g'risida»gi Nizomda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining 2024-yil 28-avgustdagi 03-3201-son ma'lumotnomasi). Natijalarning qo'llanilishi turarjoylarning qurilishi jarayonida monumental yodgorliklarni olib tashlash (ko'chirish) ishlarini amalga oshirish ishlarini ilmiy asoslarda tashkil qilishga imkon bergan.

84. Xorijiy til ta'limida sotsializatsiya va akkulturatsiya jarayonlarining lingvodidaktika bilan munosabatlarini innovatsion ta'lim muhiti imkoniyatlariga muvofiq belgilash asosida aniqlashtirilgan xorijiy til ta'limida «madaniyatlararo muloqot» tushunchasining lingvodidaktik talqini bo'yicha taklif va tavsiyalardan Termiz davlat universitetida bajarilgan «Oliy ta'lim sohasida potensialni rivojlantirish yo'nalishidagi PAWER – Hududlararo mobillikni yo'lga qo'yish va bu borada dolzarblik, sifat hamda tenglikni ta'minlash» mavzusidagi ilmiy-amaliy loyihada foydalanilgan (Termiz davlat universitetining 2023 yil 25 apreldagi 06/12-1667-son ma'lumotnomasi). Natijada, oliy ta'lim muassasalarida xorijiy til ta'limini o'qitishda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirish metodikasi takomillashtirilgan.

85. Qadriyatlar orientatsiyasi va jarayonli yondashuvlarni vitagen ta'lim integratsiyasini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlariga muvofiq xorijiy til ta'limiga ijodiy implementatsiya qilish natijasida aniqlashtirilgan madaniyatlararo muloqotning xorijiy til ta'limidagi o'rni va ahamiyati bo'yicha taklif va tavsiyalar Germaniyaning Myunster universiteti Germanistika institutida bajarilgan «Madaniyatlararo muloqot» nomli loyihada foydalanilgan (Myunster universiteti Germanistika institutining 2022 yil 5 dekabrda ma'lumotnomasi). Natijada, nemis tili ta'limida madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasi metodik-didaktik aspektida takomillashtirilgan.

86. Lingvistik etnosotsium muhitida xorijiy til ta'limiga madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirishning piramidik modeli hamda pedagogik jarayonning samaradorlik darajasini ob'ektiv baholashning pragmatik, empirik va plyuralistik omillarini metodik-didaktik aspektida qo'llash asosida takomillashtirilgan bo'lajak o'qituvchilarda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasi bo'yicha taklif va tavsiyalar O'zbekiston teleradiokanalining «Madaniy-ma'rifiy va badiiy eshittirishlar muharririyati» tomonidan tayyorlagan «Adabiy jarayon», «Ta'lim va taraqqiyot»

radioeshittirishlarining 2022 yil avgust va oktyabr oylaridagi sonlari ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (“O‘zbekiston teleradiokanali” DMning 2022 yil 24 oktyabrdagi 04-36-1776-son ma’lumotnomasi). Natijada filologik va pedagogik ta’lim yo’nalishlaridagi OTMLlarda nemis tili fanini madaniyatlararo muloqot jarayonida o‘rganish bo‘yicha metodlar majmui takomillashtirilgan.

87. Respublikamizda etishtirilayotgan makkajo‘xori, oqjo‘xori (sorgo) kabi donli ekinlarini kasallantiruvchi Maize dwarf mosaic virus (MDMV) ning ajratilgan izolyati “Fitopatogen va boshqa mikroorganizmlar noyob ilmiy obekti kolleksiyasi” genofondiga topshirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi 2023-yil 27-apreldagi 4/1255-888-son ma’lumotnomasi). Natijada fitopatogen mikroorganizmlar shtammlari kolleksiya genofondini boyitish, virus turlari xilma-xilliklari elektron bazasi axborot tahlil tizimini shakillantirish imkonini bergan

88. MPMV bilan kasallangan makkajo‘xori o‘simligidan ajratib olingan izolyati Maize dwarf mosaic virus (MDMV) nomi bilan Jahon mikroorganizmlar ma’lumotlar markazining Patogen Mikroorganizmlar Milliy kolleksiyasining (World Data Center for Microorganism (WDCM) National Collection of Phytopathogenic Microorganisms (NCAM)) ma’lumotlar bazasiga WDCM 1044-raqami orqali ro‘yxatdan o‘tkazilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi institutining 2023-yil 19-maydagi dalolatnomasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi 2023-yil 27-apreldagi 4/1255-888-son ma’lumotnomasi). Natijada dunyoning turli mintaqalarida tarqalgan Maize dwarf mosaic virusini tadqiq qilishda global doirada foydalanish imkonini bergan.

89. Toshkent viloyati Qibray tumani “Mirusmon Mirxoliq Baraka” va “Istiqlol Mirzaxmedov Mirg‘iyos Mirzakarimovich” fermer xo‘jaligilarida, jami 25 gektar maydonlarda makkajo‘xori pakanalik mozaikasi virusi hamda tabiiy holda virus saqlovchi o‘simliklarning tarqalish darajasi o‘shish fazalariga bog‘liq holda monitoring qilingan va makkajo‘xori hamda boshqa yovvoyi o‘simliklarda ushbu virusni spesifik zardob hamda PZR usullari yordamida aniqlangan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2023-yil 10-iyuldagi 05/34-05/3338-son ma’lumotnomasi). Bu esa makkajo‘xori ekin maydonlarida virus epifitotiyasining keng miqyosda tarqalishini oldini olish imkonini bergan.

90. Sintez qilingan terminal atsetilen spirtlari “Muborak gazni qayta ishlash zavodi” MChJda tabiiy gaz tarkibidagi oltingugurt va oltingugurtli birikmalarni ajratib oluvchi ingibitorlar sifatida amaliyotga joriy etilgan (“Muborak gazni qayta ishlash zavodi” MChJning 2023 yil 19 iyuldagi №454/G‘K-07-son ma’lumotnomasi). Natijada, tabiiy gaz tarkibida oltingugurt va oltingugurtli birikmalar miqdorini kamaytirishga, maxsulot tan-narhini tushirishga, toza va sifatli tabiiy gaz mahsulotlarini ishlab chiqarishga xizmat qilgan.

91. Sintez qilingan terminal atsetilen spirtlaridan fermer xo‘jaliklarida g‘o‘za o‘simligining bargini to‘kuvchi defoliantlar sifatida amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2023 yil 23 avgustdagi 07/34-05/4242-son ma’lumotnomasi). Natijada, “Buxoro-10” va “S-8290” kabi mahalliy paxta navlari hosildorligini 5,7-9,5 s/ga oshirish imonini bergan.

92. O'zaro almashtirilmaydigan uchinchi tartibli elliptik-giperbolik tipdagi tenglama uchun nolokal chegaraviy masala echimining mavjudligi va yagonaligi teoremlarini isbotlash metodlaridan foydalanib, etakchi xorijiy jurnallar (International journal of applied mathematics, 2021, Vol.34, No.2, pp.158-170; Lobachevskii Journal of Mathematics, 2022, Vol.43, no. 2, 484-495; Lobachevskii Journal of Mathematics, 2023, Vol.44, no 10, 4310-4320) da aralash sohada masala echimining yagonalik shartlarini topish uchun foydalanilgan. Ilmiy natijaning qo'llanilishi uch o'lchovli cheksiz sohada parabolik-giperbolik tenglama uchun nolokal chegaraviy masalalar, hamda to'rtburchak sohalarda eliptik-giperbolik tenglama uchun birinchi tur chegaraviy masalalar yechimlarini topish imkonini bergan.

93. Umumiy birinchi tartibli operator ta'sir ettirilgan aralash tipdagi tenglamalar uchun lokal va nolokal chegaraviy masalalarni echishga oid ilmiy natijalardan №AAAA-A19- 119013190078-8 (2019-2020 yy.) " Asosiy va aralash turdagi tenglamalar uchun chegaraviy masalalar, ularni boshqarish masalalari va dinamik tizimlarni modellashtirishda qo'llash" nomli xorijiy loyihada uchinchi tartibli parabolik-giperbolik tipdagi tenglamalar uchun chegaraviy masalalarni echimini hosil qilishda foydalanilgan (Rossiya FA Kabardino-Balkar ilmiy markazi amaliy matematika va avtomatlashtirish instituti - ilmiy muassasasining 2023-yil 16-noyabrdagi ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo'llanilishi elliptik sohada Puasson tenglamasi va giperbolik sohada Gellerstedt tenglamasi bilan mos keladigan aralash parabolik- giperbolik tipdagi tenglama uchun Triкоми masalasini echish uchun aprior baholarni olish imkonini bergan.

94. Soyani mahalliy va xorijiy navlari Samarqand viloyati Paxtachi tumani "Sharofiddin yodgorlik dalasi" fermer xo'jaligi maydoniga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023 yil 10 avgustdagi 07/34-05/3964-son ma'lumotnomasi). Natijada, xorijiy navlar ekilayotgan boshqa navlarga nisbatan ustunligi asosida yuqori va sifatli hosil olish imkonini bergan.

95. Soya navlari Navoiy viloyati Karmana tumani "Lochin" fermer xo'jaligi dalalarida istiqbolli ekin sifatida joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023 yil 10 avgustdagi 07/34-05/3964-son ma'lumotnomasi). Natijada, bu navlar hosildor, oqsil va moy miqdori yuqoriligi hisobiga respublika fermer xo'jaliklarida iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini yaxshilash imkonini bergan.

96. Kompetensiya tushunchasining tadrijiy rivojlanishini ta'limga oid ilg'or pedagogik paradigmalarni vitagen ta'lim texnologiyalariga pragmatik va empirik jihatdan moslashtirish hamda taqqoslash metodlari orqali konstruktiv rivojlantirish asosida aniqlashtirilgan umumta'lim maktablari o'quvchilarida kreativlik kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning nazariy aspektlari, o'quvchilarning kreativlik darajasini oshirish texnologiyalarini ta'lim jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini uzviylashtirishga qaratilgan funksional vazifalarini kreativlik mezonlar va sinergetik tamoyillarning integral tizimlariga muvofiqlashtirish asosida aniqlashtirilgan o'quvchilarda kreativlik kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish omillari va pedagogik shart-sharoitlari bo'yicha metodik tavsiyalar "Kreativ pedagogika"

o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2022-yil 30-dekabrda 429-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan 241-raqamli guvohnomasi). Natijada, umumta‘lim maktab o‘quvchilarida kreativ kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga erishilgan.

97. O‘quvchilarning nazariy va amaliy kreativlik darajasini oshirishni shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim imkoniyatlari bilan invariant qo‘llash hamda amaliyotga joriy etish mexanizmlarini loyihalashtirish va modellashtirish usuli orqali tashkiliy-pedagogik jihatdan optimallashtirish asosida takomillashtirilgan umumta‘lim maktablari o‘quvchilarida kreativlik kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasi, pedagogik faoliyatning tahliliy-prognostik va faoliyatli-uslubiy mexanizmlari, kreativ fikrlashni rivojlantirish mazmuni, o‘qitish tizimini tashkil etishning innovatsion, motivatsion, intellektual, hissiy, irodaviy, amaliy imkoniyatlari bo‘yicha taklif va tavsiyalar “Kreativ pedagogika” o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2022-yil 30-dekabrda 429-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan 241-raqamli guvohnomasi). Natijada, zamonaviy ta‘lim texnologiyalarini qo‘llab, o‘quvchilarda kreativlik kompetensiyasini rivojlantirishni rivojlantirish takomillashtirilgan.

98. O‘quvchilarda kreativlik kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini vitagen ta‘lim integratsiyasini ta‘minlashning ustuvor yo‘nalishlariga ob‘ektiv baholash strategiyasining pragmatik, empirik omillari vositasida moslashtirish asosida ishlab chiqilgan umumta‘lim maktablari o‘quvchilarida kreativlik kompetensiyasini rivojlantirish tuzilmasi, kreativ fikrlashni kuchaytirish, kreativ qobiliyatni rivojlantirish, umumta‘lim maktab o‘quvchilarida xalq hunarmandchiligi asosida kreativ kompetensiyasini rivojlantirishni takomillashtirish metodikasi, o‘quvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirish metodikasi, o‘quvchilarda xalq hunarmandchiligi asosida kreativ kompetensiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodlar tizimi hamda uni baholash ko‘rsatkichlari bo‘yicha taklif va tavsiyalar T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O‘zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filiali tomonidan bajarilgan A1-HT-0-92997 raqamli “Yoshlarni umuminsoniy, milliy va tarixiy qadriyatlar uyg‘unligi asosida ma‘naviy-ahloqiy tarbiyalashning muammolari” mavzusidagi amaliy loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O‘zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filialining 2022-yil 20-iyuldagi 165-son ma‘lumotnomasi.) Natijada, bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda axborotlashtirilgan ta‘lim muhitini yaratish orqali ta‘lim jarayonining ko‘rgazmaliligini va ta‘limni tashkil etishni optimallashtirishga tezkor muhitini yaratishga xizmat qilgan.

99. Toshkent viloyati toponimlarining leksik-semantik, tabiiy-geografik, ijtimoiy-iqtisodiy hamda lingvomadaniy jihatlari va xususiyatlariga oid xulosalardan Toshkent viloyati hokimligi huzuridagi toponimik komissiya tomonidan viloyatdagi tabiiy-geografik obyektlar, xususan, aholi manzillari nomini o‘zgartirish, yangilariga nom berish, tartibga solishda, tarixiy nomlarni tiklashda,

mahalla nomlarini o'zgartirishda, yozilishidagi imloviy xatolarni bartaraf etishda foydalanilgan (Toshkent viloyati hokimligining 2023-yil 19-iyuldagi 8-3-3229-son ma'lumotnomasi). Natijada O'zbekiston Respublikasining toronimik siuosatini bajarishga, hudud toronimikasida tarixiu nomlarni tiklashga, turkiy nomlar miqdorining oshishiga erishilgan.

100. Toshkent viloyati aholisining kasb-kori, hunari va mehnat jarayonlari; etnik, milliy urf-odatlar va qadriyatlar hamda aholining dunyoqarashi, e'tiqodi va tafakkuri bilan bog'liq joy nomlaridan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining targ'ibot va tashviqot, ilmiy-tadqiqot ishlarida foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023-yil 7-avgustdagi 02-22/754-son dalolatnomasi). Natijada toponimlarning shakllanishida shaxs omilining o'rni haqidagi mulohazalar amaliy asoslantirilgan.

101. Toponimlar bilan bog'liq naql va rivoyatlar o'zbek xalqining og'zaki va yozma yodgorliklari, milliy-madaniy meros namunalari, ya'ni lingvokulturemalar sifatida o'zbek tilining ijtimoiy va leksikologik imkoniyatlaridan foydalanishni oshirishiga oid ilmiy-nazariy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2019-2022-yillarda bajarilgan AM-FZ-201908172-raqamli "O'zbek tilining ta'limiy korrusini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-uyil 24-avgustdagi 04/1-1558-son ma'lumotnomasi). Natijada o'zbek tilining ta'limiy korrusida tilning onomastik ko'lamidagi ko'p asrlik milliy-madaniy merosdan unumli foydalana olish, til hodisalarining barcha qirralarini to'liq namoyon etish imkoniyati yaratilgan.

102. Murakkab pedagogik tizimda metod, vosita, shakl va mazmun komponentlarining o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini retrospektiv davriyligiga ko'ra ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish asosida aniqlashtirilgan talabalarda harbiy tarix fanini o'qitish orqali vatanparvarlik tuyg'usini qaror toptirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari, jarayon samaradorligini aniqlashda ko'rsatkichlar va baholash mezonlarini ta'lim komponentlarining gorizontal va vertikal ta'sir ko'rsatish xususiyatlari va izchillik tamoyillariga ta'lim resurslarini tashkil etishning integral tizimlari orqali integratsiyalsh asosida takomillashtirilgan talabalarda harbiy tarix fanini o'qitish orqali vatanparvarlik tuyg'usini qaror toptirishning amaliy mexanizmlari bo'yicha taklif va tavsiyalar T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filialining A1-XT-0-91997-raqamli "Yoshlarni umuinsoniy, milliy va tarixiy qadriyatlar uyg'unligi asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning muammolari" mavzusidagi amaliy loyihasini bajarishda foydalanilgan (T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filialining 2023 yil 29 avgustdagi 449-son ma'lumotnomasi) Natijada, umumiy o'rta ta'limda o'quvchilarni vatanparvarlikka oid bilim va ko'nikmalari rivojlantirilgan.

103. Sub'ektlarning faoliyat algoritmi hamda motivatsion jarayonlar izchilligini ta'minlash mexanizmlarini vitagen ta'lim integratsiyasini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlariga muvofiq joriy etish asosida

takomillashtirilgan talabalarda harbiy tarix fanini o‘qitish orqali vatanparvarlik tuyg‘usini qaror toptirishning pedagogik modeliga doir takliflar “Kurash turlari va uni o‘qitish metodikasi” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 27-martdagi 68-sonli buyrug‘i bilan berilgan №68-204-sonli nashr guvohnomasi). Natijada, yuqori sinf o‘quvchilarida ta‘lim jarayonida vatanparvarlikni rivojlantirish mazmuni aniqlashtirilgan.

104. Sub’eklar individual faoliyatini tizimlashtirish va uni texnologik jarayonlar tuzilmasi sifatida tashkiliy-metodik jihatdan takomillashtirish asosida talabalarda harbiy tarix fanini o‘qitish orqali vatanparvarlik tuyg‘usini qaror toptirishning amaliy-texnologik tizimini takomillashtirishga oid metodik tavsiyalar “Kurash turlari va uni o‘qitish metodikasi (milliy kurash)” nomli darslik mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2020-yil 14-avgustdagi 418-sonli buyrug‘i bilan berilgan 418-073-sonli nashr guvohnomasi). Natijada, oliy ta‘lim tizimida barkamol inson shaxsiyatini shakllantirishda harbiy vatanparvarlik sifatlariga qo‘yiladigan talablar va mezonlar to‘g‘risida uslubiy asos yaratildi.

105. P. major o‘simligidan ajratib olingan substansiya tajribaviy QDda metabolik buzilishlarni oldini olish to‘g‘risida olingan natijalardan Medical Center at Training & Research Institute – Jeramba Ilmu Sukses loyixasida tajribaviy QDda P. major polifenollari substansiyasining gipoglikimik xususiyatidan foydalanilgan (Indoneziya o‘quv va ilmiy-tadqiqot instituti tibbiyot markazining 2022-yil 22-sentyabrdagi ma‘lumotnomasi). Natijada, P. major substansiyasi QD simptomlarida metabolik buzilishlarning oldini olish va davolash imkonini bergan.

106. P. lanceolata o‘simligidan ajratib olingan polifenollar substansiyasi tajribaviy QD kasalligining rivojlanish mexanizmlarida metabolik buzilishlarning oldini olish to‘g‘risida olingan natijalardan Gyoteborg Universitetining (Shvesiya) Research Center for Molecular and Clinical Medicine loyixasida tajribaviy QDda polifenollar substansiyasining biologik faolliklari kasallikning rivojlanish mexanizmlarida oldini olish va davolash maqsadida foydalangan (Gyoteborg universiteti molekulyar va klinik tibbiyot tadqiqot markazining 2022-yil 29-sentyabrdagi ma‘lumotnomasi). Natijada, P. lanceolata substansiyasi QD simptomlarida giperglikemiyaning oldini olish va kasallik xavfini pasaytirish imkonini bergan.

107. Dissertatsiya ishining ilmiy-nazariy va amaliy xulosalari asosida ishlab chiqilgan “O‘simliklardan Fenol birikmalarini ajratib olish va ularni tibbiyotdagi ahamiyati” nomli uslubiy tavsiyanoma tasdiqlangan (Toshkent pediatriya tibbiyot instituti muvofiqlashtiruvchi Ekspert kengashining 29-aprel 2023-yil, №03/38 raqamli guvohnoma). Natijalar, Toshkent Farmatsevtika instituti Farmakologiya va klinik farmatsiya kafedrasi o‘quv jarayonlari amaliyotiga joriy etilgan hamda o‘quv jarayonida samaradorlikka erishilgan.

108. Talabalarda vizual yondashuvlarni talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirishning didaktik imkoniyatlariga muvofiq o‘quv-diagnostik jarayonda individual yo‘nalganlikda qo‘llash mexanizmlarini takomillashtirish asosida ochib berilgan amaliy mashg‘ulotlar ustuvorligida bo‘lajak

o'qituvchilar kasbiy kompetentligini shakllantirishning nazariy aspektlariga doir g'oyalar OTM talabalari uchun yaratilgan "O'zbekstanniң eң jaңa tarixi" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 6-noyabrda 491-sonli buyrug'i asosida 857037-son nashr ruxsatnomasi). Natijada, talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishda ustoz-shogird munosabatlari shakllanishiga asos bo'lib xizmat qilgan.

109. Talabalarning amaliy kompetensiyasini axborot-loyiha texnologiyasi asosida shakllantirish texnologiyasini fanlararo integratsiyani o'qish, amaliy va mustaqil ish topshiriqlari mazmuniga muvofiq reproduktiv, produktivlik darajalarda singdirish asosida takomillashtirilgan amaliy mashg'ulotlar jarayonida kasbiy kompetentlikni shakllantirishning innovatsion modeli bo'yicha tavsiyalardan M.Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining FZ-2020010829-sonli "Talaba yoshlar ilmiy faoliyatida amaliy ko'nikmalarni shakllantirishning innovatsion mexanizmlari nomli amaliy loyihasida foydalanilgan (M.Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining 2024 yil 25 iyundagi 04/11-4571-son ma'lumotnomasi). Natijada, talabalarning ijodiy-kasbiy faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan didaktik imkoni oshirilgan.

110. Kasbiy faoliyatda metodik mo'ljallash olishga tayyorlovchi qayta aloqali loyiha mashqlarini axborotni topish, qayta ishlash va foydalanish bosqichlarida talabalarning kasbiy rivojlanish vektoriga muvofiq differensiallik darajalarda transformatsiyalash asosida takomillashtirilgan talabalarda kasbiy kompetentlikning shakllanganlik darajasini baholash mezonlariga oid tavsiyalardan "O'zbekiston" teleradiokanali DM "Madaniy-ma'rifiy va badiiy eshittirishlar muharriyati tomonidan tayyorlangan "Millat va ma'naviyat", "Ta'lim va taraqqiyot" dasturlarida foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2024 yil 8 iyuldagi 04-36-817-son ma'lumotnomasi). Natijada, tarix fanini o'qitish metodikasini konstruktiv-instrumental qo'llashga doir ilmiy qarashlar munosabati ommalashtirilgan.

111. Jamiyatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlash shu mintaqada istiqomat qilayotgan polietnik millat vakillarida ijtimoiy kelib chiqishi, diniy mansubligi, milliy qadriyatlari va urf-odatlarini, an'analari fuqarolik jamiyati va erkin fuqaro prinsiplaridan kelib chiqib yondashish, ularda yagona Vatan tuyg'usini shakllantirishga bevosita bog'liqligi milliy-siyosiy birdamlik tamoyiliga ko'ra ochib berilganligiga oid xulosalardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2021 -2022 yillarda o'tkazilgan targ'ibot faoliyatida tatbiq etilgan. Jumladan, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2022 yilda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va soxani rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturining IX yo'nalishida belgilangan "Geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarni muntazam o'rganish, millatchilik, terrorizm, ekstremizm, aqidaparastlik, odam savdosi, narkobiznes va boshqa xatarli tahdidlarga karshi samarali g'oyaviy kurash olib borishda foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2023 yil 11 yanvardagi 8-son dalolatnomasi). Ushbu nazariy takliflar Markaz va uning qoshidagi institutning millatlararo totuvlikni rivojlantirish borasidagi ishlari samaradorligini oshirishga katta hissa qo'shgan.

112. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida millatlararo munosabatlarni takomillashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari, etno-ijtimoiy jarayonlar tahlil qilingan hamda millatlararo differentsiatsiya jarayonlari, globallashtirish va millatlararo hamjihatlikni ta‘minlash bilan bog‘liq muammolar jamiyatda siyosiy barqarorlik va millatlararo birdamlikni ta‘minlash borasida amalga oshirilayotgan siyosiy islohotlarga ko‘ra tasniflanganligiga oid mulohazalardan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stona munosabatlar bo‘yicha qo‘mitasining 2022 yilga mo‘ljallangan ish rejasining 33. “Fuqarolar yig‘inlarining diniy ma‘rifat va ma‘naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo‘yicha maslahatchilarining ishini samarali tashkil etishning tartib-taomillari”; 41. “Mahallalarda huquqbuzarlik, millatchilik, diniy ekstremizm, aqidaparastlik mafkurasi, missionerlik kabi salbiy illatlarning oldini olish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish” bandlarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stona munosabatlar bo‘yicha qo‘mitasining 2023 yil 04 apreldagi 14-07-371-son dalolatnomasi). Mazkur ilmiy xulosa va amaliy tavsiyalardan Qo‘mitaning konferensiya, seminar, davra suhbatlari, shuningdek millatlararo munosabatlar bo‘yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlarni tashkil etishiga katta hissa qo‘shgan.

113. Ijtimoiy-ma‘naviy hayotning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan teng huquqlilik, tolerantlik, etnopolyuralizm, multikulturalizm g‘oyalarini amalga oshirishda monoetnik millat vakillarining san‘ati, madaniyati, urf-odatlari va qadriyatlarini titul millatning shu mazmundagi an‘analari bilan uyg‘unlashtirish jamiyatda siyosiy barqarorlik va milliy totuvlikni ta‘minlashning muhim omili ekanligiga oid xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi “Milliy tiklanish” demokratik partiyasining 2020-2024 yillarga mo‘ljallangan saylovoldi dasturidagi 5.4. Millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash sohasida: O‘zbekiston fuqorolarini millatlararo hurmat, do‘stlik, ahillik va vatanparvarlik, mamlakat taqdiri uchun ma‘suliyat va daxldorlik tuyg‘usi atrofida jipslashtirish kabi belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi “Milliy tiklanish” demokratik partiyasining 2023 yil 23 yanvardagi 04/173-son dalolatnomasi). Natijalarning amaliyotga joriy etilishi partiya faoliyatida millatlararo totuvlikni ta‘minlash yo‘nalishida amalga oshirishga yo‘naltirilgan tadbirlarda ayniqsa, polietnik mahallalardagi tadbirlarni empirik, strategik, tizimlilik asosida tashkil etish imkonini bergan.

114. Polietnik jamiyatda milliy siyosat konsepsiyasini umuminsoniylik tamoyillarini (qonun ustuvorligi, tenglik, erkinlik) inobatga olgan holda ishlab chiqish zarurati asoslangan hamda bu jarayonda an‘anaviylik, konservatizm, transformatsionalizm, diniy bag‘rikenglik kabi konseptual g‘oyalarga tayanilish (empirik kuzatuv, maqsadli-tizimlilik usullari asosida) etnomunosabatlarni rivojlantirish omillari ekanligiga oid xulosalardan Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazining 2021-2022 yillarda o‘tkazilgan targ‘ibot faoliyatida tatbiq etilgan.

115. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2022 yilda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va soxani rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturining IX yo'nalishida belgilangan "O'zbekiston - umumiy uyimiz", "Jaholatga qarshi ma'rifat", "Islom aqidaparastlikni qoralaydi", "Yoshlar ekstremizmga qarshi", "Ma'naviyat odam va olam haloskori", "Missionerlik: mohiyat, maqsadlar, oqibatlar va oldini olish yo'llari", "Islom terrorizmga qarshi" mavzularida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etish"da foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2023 yil 11 yanvardagi 8-son dalolatnomasi). Ushbu nazariy takliflar Markaz va uning qoshidagi institutning millatlararo totuvlikni rivojlantirish borasidagi ishlari samaradorligini oshirishga katta hissa qo'shgan.

116. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligida tanqidiy yondashuv, tahlil qilish va qaror qabul qilish kabi analitik ko'nikmalarning rolini kognitiv pedagogika va konstruktivizm nazariyalarining rivojlanayotgan tabiatiga faol ta'lim strategiyalari yordamida singdirish orqali asoslangan talabalarda analitik fikrlashning pedagogik zarurati bo'yicha taklif va tavsiyalardan Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan PZ-20170929789 raqamli "O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonida ilg'or pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish" mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining 2024 yil 4 oktabrdagi 04/18-3854-son ma'lumotnomasi). Natijada, tarixiy taqqoslash va kartografik usullar yordamida talabalarda analitik tafakkurni rivojlantirishning mezon va ko'rsatkichlari aniqlashtirilgan.

117. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini oshirishda tarixiy hodisalarni qiyoslash, kartografik modellashtirish va vizual tahlil elementlarini global dunyoqarash, multikulturalizm va multidissiplinar yondashuvlar orqali virtual o'quv muhitiga metodik jihatdan moslashtirish asosida takomillashtirilgan talabalarning analitik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish mexanizmlari bo'yicha xulosalar "Geografiyani o'qitishda innovatsion texnologiyalar" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikas Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 17 iyuldagi 314-son buyrug'i bilan taqdim etilgan 314-200 raqamli nashr guvohnomasi). Natijada, tarix va geografiya ta'limining didaktik ta'minoti takomillashtirilgan.

118. Tarixiy taqqoslash va kartografik usullardan ta'lim jarayonida birgalikda foydalanish imkoniyatlarini kasbiy va fan bilan bog'liq kompetensiyalarga tarixiy va geografik ma'lumotlarni vizual tahlil qilishga qaratilgan kartografik tamoyillarga muvofiq integratsiyalash asosida takomillashtirilgan talabalarda analitik ko'nikmalarni rivojlantirish metodikasi, pedagogik texnologiyalarda tarixiy va kartografik usullarni uyg'unlashtirishning metodik imkoniyatlarini analitik tafakkur, tahlil, mantiqiy fikrlash va sabab-oqibat munosabatlariga muvofiq qo'llashning amaliy mexanizmlarini takomillashtirish asosida ishlab chiqilgan tarixiy taqqoslash va kartografik usullarni ta'lim amaliyotida integratsiyalab qo'llash bo'yicha taklif va tavsiyalardan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali"ning "Ta'lim va

taraqqiyot”, “O‘zbekiston yoshlari” ko‘rsatuvini ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston teleradiokanali”ning 2023 yil 26 apreldagi 04-36-635-son ma‘lumotnomasi). Natijada, tarix va geografiya ta‘limida talabalarning analitik ko‘nikmalarini rivojlantirishning amaliy-texnologik tizimi takomillashtirish bo‘yicha metodik ta‘minot ommalashtirilgan.

1.7. Чирчиқ давлат педагогика университети Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси билан ҳамкорлик

Кадрлар тайёрлаш миллий дастурининг мақсад ва вазифаларидан келиб чиққан ҳолда, Республика ривожланишини таъминлайдиган устувор йўналишлардан бири, бажариладиган илмий-тадқиқот ишларининг ҳамда юқори даражада илмий салоҳият сифатини ошириш, шунингдек 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси” тўғрисидаги фармони, 2017 йил 27 июлдаги ПҚ-3151-сонли “Олий маълумотли мутахассислар тайёрлаш сифатини оширишда иқтисодиёт тармоқларининг иштирокини янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”, 2018 йил 5 июнь ПҚ-3775-сонли “Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг қамровли ислохотларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” ги, 07.05.2020 ПҚ-4708 сонли Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Математика соҳасидаги таълим сифатини ошириш ва илмий-тадқиқотларни ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги қарорлари ижросини таъминлаш борасида, Чирчиқ давлат педагогика университети билан ЎзР ФА В.И.Романовский номидаги Математика институти ўзаро ҳамжиҳатлигини янада самарасини ошириш:

1. Илмий-тадқиқот ишлари олиб бориш, соҳадаги ахборот ва иш тажрибаларини ўзаро алмашиниш, илм-фан ва амалиёт интеграциясини йўлга қўйиш.

2. Таянч-докторантлар, докторантлар, мустақил изланувчилар, магистратура ва бакалавриатура талабаларининг фундаментал, амалий, лаборатория ишларини биргаликда олиб бориш учун имкониятлар яратиш ва икки томонлама раҳбарликни жорий этиш.

3. Магистратура талабаларининг магистрлик, таянч-докторантларнинг фан фалсафаси доктори (PhD) ва ва докторлик (DSc) диссертацияси ишлари мавзуларини шакллантириш, уларга раҳбарлик қилиш ёки маслаҳатчиликни икки томонлама келишилган ҳолда амалга ошириш.

4. ЎзР ФА В.И.Романовский номидаги Математика институтининг тажрибали, юқори илмий салоҳиятли ходимларини Чирчиқ давлат педагогика университети ўқув-жараёнига жалб этиш.

5. Ҳамкорликда учрашувлар, давра суҳбатлари, илмий-тадқиқотлар ва Республика ҳамда халқаро миқёсида илмий анжуманлар ташкил қилиш.

6. Томонларни қизиқтирувчи илмий-техникавий янгиликлар билан ўзаро алмашиб туриш.

7. Илмий тажрибалар ўтказишда ва кафедраларнинг илмий ишлаб чиқариш базаларини ривожлантиришда имконият доирасида ўзаро ёрдам кўрсатиш.

8. Илмий-техникавий маҳсулотларни ҳамкорликда ишлаб чиқаришни йўлга қўйиш.

9. Янги ўқув адабиётлари, ўқув қўлланмалари, ўқув услубий қўлланмаларни биргаликда яратиш ва уларни нашрга тайёрлаш. Маъруза, амалий ва лаборатория машғулотларини ўтказишда ва магистрлик диссертацияларига раҳбарлик қилиш, тақриз жараёнида қатнашиш учун етакчи илмий ходимларни жалб этиш. Бакалавр ва магистратура талабаларининг малакавий амалиётини ўтишда ҳамкорлик қилиш.

Каби бир қатор бир мунча долзарб масалаларни кўзда тутувчи, математика фанининг ривожланишига ва вилоятларга етук кадр тайёрлаб беришни кўзда тутувчи шартномавий келишувга эришилган ва бугунги кунга келиб бир қатор ЎзР ФА В.И.Романовский номидаги Математика институтининг етакчи ходимлари Чирчиқ давлат педагогика университети ёш кадрлари ва талабалари билан иш олиб боришмоқда. Бундан ташқари бир нечта бакалавр йўналиш ҳамда магистр йўналишлари битирувчи талабалари билан бир қаторда иш олиб боришмоқда.

Илмий ва методологик кимё кафедраси Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси тизимидаги Ўсимлик моддалар кимёси, Полимерлар физикаси ва кимёси, Умумий ва ноорганик кимё, илмий тадқиқот институтлари билан ҳамкорлик ўрнатган. Илмий ва методологик кимё магистрантлари ва таянч докторантлари ушбу ИТИ ларида илмий тадқиқот ишларини олиб боришда лаборатория тажрибалари ва олинган натижалар таҳлилини олиб бормоқда. Жумладан, 2024 йил давомида кафедранинг 1 нафар ўқитувчиси, 2 нафар магистранти ва 1 нафар таянч докторанти ИТИ бажарилаётган илмий-тадқиқот лойиҳаларида иштирок этди. Ҳисобот йилида кафедра ва ИТИ олимлари ҳамкорликда 12 та илмий мақола (Scopus базасида 2 та, халқаро базаларга киритилган журналда 5 та, ЎзР ОАК руйхатига киритилган журналда 7 та) ва 19 та илмий тезис (6 та республика, 13 та халқаро) нашр этилган.

Табиий фанлар факультети Генетика ва ўсимликлар экспериментал биологияси, Ботаника, Микробиология ИТИ билан ҳамкорлик алоқалари ўрнатилган бўлиб, бугунги кунда Биология кафедраси ўқув жараёнига Генетика ва ЎЭБ институтидан бир нафар етакчи илмий ходим, б.ф.д., проф. Х.Х. Матниёзова жалб этилган ва кафедрага қабул қилинган 2 нафар 2-босқич магистрант ва 1 нафар 03.00.07-Ўсимликлар физиологияси ва биокимёси бўйича кафедранинг ёш ўқитувчисига раҳбарлик қилиб келмоқда. Бугунги кунда магистрантлар ёш олима аёллар илмий-тадқиқотлар доирасида ютиб олинган илмий лойиҳада фаолият олиб бораётган бўлиб, олинган натижалари асосида 5 илмий мақола (Scopus базасида 2 та, ЎзР ОАК руйхатига кирган журналларда 3 та илмий мақола), 6 та илмий тезис (3 та

республика, 3 та халқаро) нашр этилган. Ўзаро ҳамжихатликнинг янада самарасини ошириш мақсадида Табиий фанлар факультетида қуйидаги ишлар амалга оширилди:

Жумладан, Биология кафедрасида:

1. Илмий-тадқиқот ишларини олиб бориш, иш тажрибаларини ўзаро алмашиш, илм-фан ва амалиёт интеграциясини йўлга қўйиш.

2. Таянч-докторантлар, докторантлар, мустақил изланувчилар, магистратура ва бакалавриатура талабаларининг фундаментал, амалий, лаборатория ишларини биргаликда олиб бориш учун имкониятлар яратиш ва икки томонлама раҳбарликни жорий этиш.

3. Магистратура талабаларининг магистрлик, таянч-докторантларнинг фан фалсафаси доктори (PhD) ва докторлик (DSc) диссертацияси ишлари мавзуларини шакллантириш, уларга раҳбарлик қилиш ёки маслаҳатчиликни икки томонлама келишилган ҳолда амалга ошириш.

4. ЎЗР ФА тасарруфидаги институтларнинг тажрибали, юқори илмий салоҳиятли ходимларини Чирчиқ давлат педагогика университети ўқув-жараёнига жалб этиш.

